



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

TARIX FAKUL'TETI

“MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI” KAFEDRASI

**“Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi“ yo'nalishi 404-guruh
talabasi Aripov Abdulloh**

REFERAT

**MAVZU: Tasaffuv tariqati namoyondalari fikrlarining milliy ma'naviy
tiklanish jarayonida tutgan o'rni.**



Ilmiy rahbar:_____U.Nigmanova

Kafedra mudiri_____ M.Sobirova

Toshkent-2014

REJA:

KIRISH.

I.BOB. Milliy ma'naviy tiklanish sharoitida Najmiddin Kubro qadriyatining tiklanishi

1.1. Tasavvufiy ta'limotlar.

1.2. Hazrati Bahovuddin Naqshbandning hayoti va tasavvufiy qarashlari.

II.BOB.Mustaqillik yillarida tasavvuf tariqati asoschilari qadriyatlarining tiklanishi

2.1. Movarounnahr-qadim tasavvuf beshigi

2.2. Tasavvuf tariqati asoschilari qadriyatlarining tiklanishi

XULOSA

ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda diniy qadriyatlardan, ayniqsa, odob, axloq borasida islom dini ta'limotidan oqilona, ijodiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Islom dinida nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan, hozirgi paytda ham o'z qimmatini to'la saqlab kelayotgan eng muhim axloqiy qoidalar, falsafiy fikr-mulohazalar behisob. Islom odamlarni dinidan, millatidan qat'i nazar o'zaro hurmat izzatda bo'lishga, bir-birlarlarini doimo qo'llab-quvvatlashga undaydi.

Islom dinining jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirishda, insonning ma'naviy kamolotida tutgan o'rni haqida gapirib, Prezident I.A.Karimov shunday fikrlarni bildirib o'tadi. "Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir"¹.

Tasavvuf ta'limoti payg'ambarlardan meros qolgan. Har bir ulug' payg'ambar o'z qalbini Allohning zikri bilan pok etib, Uning buyruqlarini bekamu ko'st bajargan va halol mehnat ila rizq topishni o'z burchi deb bilgan. Jumladan, Odam alayhissalom dehqonchilik, Idris alayhissalom temirchilik, Muso va Muhammad alayhissalomlar cho'ponlik qilganlar. Keyinchalik Muhammad alayhissalom tijorat bilan shug'ullanganlar.

Payg'ambarlardan meros bu qadriyat valiylik maqomiga erishgan ahli ulamo tomonidan munosib davom ettirilgan. "Tasavvuf shayxlari xalqning ma'naviy rahbarlari, ruhoniylar sifatida maydonga chiqib, payg'ambar (s.a.v.) faoliyati, holatlarini davom ettirishga jazm etganlar".

Avliyoullohlarning amaliy faoliyatida ham Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan meros sunnatga sadoqat bajo etganlar. Jumladan, "Xojagon shayxlari ishsiz, ma'lum kasb-hunar egasi bo'lmagan insonlarni muridlikka qabul qilmaganlar, o'zlari albatta biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganlar. Xoja Ali Rometaniy – to'quvchi, Muhammad Boboyi Samosiy – bog'bon, Sayyid Amir Kulol – kulol, Bahouddin Naqqoshband – naqqosh, to'quvchi va chorvador, Amir Kulolning o'g'li Amir Hamza – ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror – chorvador va savdogar bo'lishgan". Bu yanglig' ijtimoiy hayotga vobastalik asrlar davomida xojagon tariqati mavqeining ortishiga, unga ergashuvchi, qalbini imon ma'rifati, jismini mehnat rohati bilan oziqlantirish ishtiyoqi ila yongan ahli solikning ko'payishiga zamin yaratgan.

Mavzuning maqsadi. Mashhur tasavvuf shayxlaridan biri, kubroviylik tariqati asoschisi Najmiddin Kubro shaxsiyati va faoliyatiga O'rta Osiyo xalqlari

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 36-b

qadimdan katta qiziqish bilan qaragan. Uning hayoti, karomatlari haqida el orasida ko'plab rivoyatlar bor. Muhammad Doroshukuhning "Safinatul avliyo", Rizoqulixon Hidoyatning "Riyozi ul orifin", Mavlaviy G'ulom Sarvar Sohib Lohuriyning "Xazinatul asfiyo", Abdurahmon Jomiyning "Nafahotul uns" kitoblarida Najmiddin Kubroning hayoti, so'fiylik tariqati va faoliyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Mavzuning vazifasi. Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir. Abul-Jannob va Tomatul Kubro laqablariga sazovor bo'lgan tasavvufning Kubraviya silsilasining asoschisi Najmiddin Kubroning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiydir. Hijriy oltinchi va yettinchi asrlarda yashagan Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Ilqamaviy, Sayfiddin Bahorziy va Bahouddin Valad kabi siymolar u kishining murid va shogirdlari bo'lgan.

Axmad ibn Umar Abul-Jannob Najmiddin Kubro 540 hijriy yidda Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga keladi. Abdurahmon Jomiy o'zining «Nafahot-ul-uns» asarida yozishi-cha, Najmiddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo'ladi. Misrda Ruzbehon Vazzon al-Misriy (vafoti 584/1188) degan olim dargohida ta'lim oladi. Al-Misriy esa, o'z navbatida, mash-hur mutasavvuf donishmand Abu Najib as-Suxravardiydan ta'lim olgan edi. Ruzbehon uni o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan tarbiya qiladi, hatto qizini nikohlab berib, o'ziga kuyov qilib oladi. Ammo ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur Ilqafda degan donishmanddan islomiy ilmlarni o'rganadi va Tabrizda shayx Bobo faraj, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvuf donishmandlardan tasavvufga oid ko'pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham egallaydi. U kishi shayx Ismoil Kasriy qo'lida tasavvufiy xirqapush darajasiga yetib, ul hazratning oq fotihasini oladi. So'ngra Misrdagi ustoz va qaynatasi Ruzbehon maslahati bilan o'z vatani — Xorazmga qaytib kelib xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi, «Kubraviya» yoki «Zahobiya» tariqatiga asos soladi. Bu tariqat ta'limoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib, o'z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliklari orasida zikrni ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro qilish usuli joriy bo'lgan. «Rashahot ayn-ul-hayot» asarining muallifi Faxruddin as-Safiy o'z asarida hazrati Abdurahmon Jomiy fikrlariga tayangan holda Najmiddin Kubroning zikri xufiya talqini to'g'risida so'z yuritadi va shayx Kubro fikricha, zikr jarayoni insonlarning nafas olish (tanaffus) jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqida shunday ma'lumot beradi: «Hazrat Mahdumi Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy aytishlaricha, shayx Abul-Jannob Najm al-Kubro qudsi Allohi ruhi o'zining «Favotix al-jamol» risolasida yozganlaridek, hayvonlarning nafas olishi bir tabiiy zaruriyat tufayli yuz beradi. Insonlar ham aslida ayni o'sha zaruriyat yuzasidan nafas oladilar, lekin o'shanday nafas olish jarayonida inson g'oyibona haqqu subhonahuning muborak nomini zikr qiladi.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur «Lugʻatnoma»sida keltirilishi-cha, «u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlarini tufayli har qanday muammoli masalani soʻralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, gʻolib chiqar edilar». SHuningdek, u kishini Tomatul Kubro, yaʼni buyuk balo va qazolarning oldini oluvchi, xaloskor deb ham atashgan. Abul-Jannob deb atalishlariga sabab esa, u kishining dunyoviy ikir-chikirlardan uzoqturganliklaridir. Ul zotni «Valitarosh» (valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi) deb ham atashgan. CHunki umrlari davomida oʻn ikki kishini oʻz muridliklariga qabul qilganlar va ularning barchasini shayx darajasiga yetkazganlar. Ular qatorida mashhur shayxlardan Farididdin Attorning otasi Majididdin Bagʻdodiy (vafoti 1219) va Jaloliddin Rumiyni otasi Bahouddin Valad, Najmiddin Doya Roziy, Saʼdiddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va boshqalar bor.

I.BOB. Milliy ma'naviy tiklanish sharoitida Najmiddin Kubro qadriyatining tiklanishi

1.1. Tasavvufiy ta'limotlar.

Turli qomusiy lug'atlar, ilmiy-irfoniy manbalarda tasavvufning dunyoga kelishi va bu atama mohiyati haqida turlicha qarashlar bayon etilgan. Tasavvufga, bu qarashlar mohiyatidagi uyg'un nuqtalarni umumlashtirgan holda, **insoniyatni ruhiy-ma'naviy poklanishga da'vat etuvchi g'oyalar silsilasi** deya ta'rif berish mumkin. Biroq tasavvufga berilgan ko'pdan ko'p ta'riflarning aksariyatida unga nazariya sifatida qarash kayfiyati ustuvorlik qiladi. Bizningcha, esa tasavvuf – sof amaliyotdir. Unga amaliy faoliyat, o'zlikni anglash va o'zini poklash bilan bog'liq uzluksiz jarayon sifatida qarash – tasavvuf mohiyatini teranroq anglashga ko'mak berishi bilan birga, uning ijtimoiy ahamiyatini oshirib, har bir jamiyat ma'naviy-ma'rifiy hayotidagi o'rnini aniq tasavvur etishga zamin yaratadi. Zotan, tasavvuf tariqatlari ichida ijtimoiy turmushga yaqinlari barcha asrlarda omma diqqatini o'ziga tortgan va shu tariqa insoniy kamolot pillapoyalarini bosib o'tish bilan bog'liq sermashaqqat jarayonning beminnat ko'makchisiga aylangan. Xojagon-naqshbandiya tariqati bosib o'tgan yo'l va uning bugungi jahonshumul mavqei – fikrimizning yorqin dalilidir. Aksincha, tasavvufni falsafiy oqim sifatida izohlagan va tushuntirishga uringan Ibn Arabiy kabi olimlarning nazariy talqinlari tufayli ba'zan unga fan tarmoqlaridan biri o'laroq qarash, uning amaliy mohiyatidan uzoqlashish ham kuzatilgan.

Tasavvuf ta'limoti payg'ambarlardan meros qolgan. Har bir ulug' payg'ambar o'z qalbini Allohning zikri bilan pok etib, Uning buyruqlarini bekamu ko'st bajargan va halol mehnat ila rizq topishni o'z burchi deb bilgan. Jumladan, Odam alayhissalom dehqonchilik, Idris alayhissalom temirchilik, Muso va Muhammad alayhissalomlar cho'ponlik qilganlar. Keyinchalik Muhammad alayhissalom tijorat bilan shug'ullanganlar.

Payg'ambarlardan meros bu qadriyat valiylik maqomiga erishgan ahli ulamo tomonidan munosib davom ettirilgan. "Tasavvuf shayxlari xalqning ma'naviy rahbarlari, ruhoniylar sifatida maydonga chiqib, payg'ambar (s.a.v.) faoliyati, holatlarini davom ettirishga jazm etganlar".

Avliyoullohlarning amaliy faoliyatida ham Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan meros sunnatga sadoqat bajo etganlar. Jumladan, "Xojagon shayxlari ishsiz, ma'lum kasb-hunar egasi bo'lmagan insonlarni muridlikka qabul qilmaganlar, o'zlari albatta biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganlar. Xoja Ali Rometaniy – to'quvchi, Muhammad Boboyi Samosiy – bog'bon, Sayyid Amir Kulol – kulol, Bahouddin Naqshband – naqqosh, to'quvchi va chorvador, Amir Kulolning o'g'li Amir Hamza – ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror – chorvador va savdogar bo'lishgan". Bu yanglig' ijtimoiy hayotga vobastalik asrlar davomida xojagon tariqati mavqeining ortishiga, unga ergashuvchi, qalbini imon ma'rifati, jismini mehnat rohati bilan oziqlantirish ishtiyoqi ila yongan ahli solikning ko'payishiga zamin yaratgan.

Tasavvuf amaliyoti bilan mashg'ul kishilar **so'fiylar** deb yuritilgan.

So'fiy صوفي so'zining kelib chiqishi: payg'ambar alayhissalomning muborak masjidlari yonida ba'zi kambag'al sahobalar sufa(supa)da yashaganlar. SHuning uchun ular "ahli suffa" yoki "ashobi suffa" deyilgan. **Bu tarixiy ta'rif.**

Suf صوف – jun kiyim, so'fiy esa – jun mato kiygan kishi, jandapo'sh degani. So'fiylar, odatda, jundan kiyim kiyib yurganlar. **Bu zohiriy ta'rif.**

Ular qalblarini Alloh zikri bilan pokiza qilganlari, doimo zikr aytib yurganlari uchun, ya'ni "safo ul-qalb" (qalb sofliigi) yo'lida jonbozlik ko'rsatganlari bois ham so'fiy deb atalganlar. **Bu botiniy ta'rif.**

Payg'ambar alayhissalomning muborak sunnatlarini kishilar o'rtasiga yoyish, ularga doimo amal qilish, ashobi sufa odatlariga, jandapo'shlikka va qalb pokizaligiga qattiq e'tibor berganlari uchun so'fiy deb aytilgan. **Bu amaliy ta'rif.**

Biroq so'fiylikning rohiblik (tarkidunyochilik)dan jiddiy farqi bor. Rohiblik Alloh taolo buyurgan amallardan bo'lmay, balki uni kishilarning o'zlari o'ylab chiqarganlar. Bu haqda Qur'oni karimda shunday marhamat qilinadi:

و رهبانية ابتدعوها ما كتبنا عليها

"Rohiblikni esa ular o'zlari chiqarib oldilar. Biz ularga uni (rohiblikni) yozganimiz yo'q". (Hadid surasi, 27-oyat)

Payg'ambar alayhissalom aytadilarki:

لا رهبانية في الاسلام "Islomda rohiblik yo'q".

Tasavvufdagi biror shayx yoxud valiulloh tomonidan ma'lum tizimga solingan yo'l, oqim **tariqat yoxud suluk** deb yuritiladi. Ilmiy-irfoniy manbalar orqali o'tmishda biror tariqat yo'lboshchisiga nisbatan **pir** yoki **murshid**, bu yo'lni qabul qilgan shaxsga nisbatan **murid yoxud solik** atamalarini qo'llash ma'lum urf sifatida amal qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Tasavvuf ilmi bilan shug'ullangan, uning tarixi va taraqqiyotini o'rganib, g'oyalari targ'ibiga sa'y etgan olimlar esa **mutasavviflar** deb yuritiladi.

Tariqat sardorlari, ya'ni murshidlar valiylik sifatiga ega bo'lganlar. Valiylik (avliyolik) hammaga ham nasib etavermaydigan yuksak martaba bo'lib, avliyolar Alloh taolo nazdida benihoya aziz zotlardir.

Valiy ولي do'st, ko'pligi **avliyo** أولياء do'stlar degani. Avliyolar – Allohning do'stlari, Uning roziligini topgan zotlar, Allohga yaqin kishilar. Ular – Haq taoloning sevikli va suyukli, Uning nazari tushgan solih, taqvodor, karomatli va ixlosli bandalari. Avliyolar vafotlaridan keyin ham insonlarga ma'naviy foyda yetkazib, ularning tushlariga kirib, biror narsadan ogoh etadilar yoki ularga nasihat qiladilar, tanbeh beradilar. Avliyolar to'g'risida har xil salbiy fikr bildirishdan, ularni vasila (vosita) qilish, ularning qabrlarini ziyorat qilish yoki haqlariga duoi fотиha qilish shirk deyishdan ehtiyot bo'lish kerak. Chunki Alloh taolo aytadiki:

أَلَا إِنَّ أَوْلِيَاءَ اللَّهِ لَا خَوْفَ عَلَيْهِمْ وَلَا هُمْ يَحْزَنُونَ الَّذِينَ آمَنُوا وَكَانُوا يَتَّقُونَ

"Ogoh bo'lingizki, albatta, Allohning valiy (do'st)lariga (oxiratda) xavf yo'qdir va ular tashvish ham chekmaslar. Ular imon keltirgan va taqvoli bo'lganlardir". (Yunus surasi, 62-, 63-oyatlar)

Avliyolar Alloh nurining ma'danlari bo'lib, ularga Haq taolo tomonidan karomat beriladi. Karomat – payg'ambar alayhissalomning sunnatlariga doimo amal qilish natijasida paydo bo'ladi.

كرامة الأولياء حق – Avliyolarning karomati haq.

Avliyolarning 6 ta tabaqasi bor:

1. **Qutb** قطب – tasavvuf shayxlariga beriladigan eng oliy unvon. Tasavvufda ma'lum bir darajaga yetgan avliyolar. Ular ikki nafardirlar. Har bir davrning o'z qutbi bo'lib, ular har bir zamonda mavjud bo'ladilar. Ularning qalbi Muhammad alayhissalom qalblari bilan aloqador bo'ladi.

2. **G'avs** غوث – bu ham qutb kabi bo'lib, yordam beruvchi degan ma'noni anglatadi.

3. **Abdol** ابدال – g'oyib kishilar toifasidan bo'lib, o'zlari xalq ichida bo'lsalar-da, ularning abdol ekanliklarini hech kim bilmaydi. Abdol fors va turkiy tillarda “chihltan” (qirq kishidan iborat) deb yuritiladi. Ulardan qaysi biri vafot etsa, o'rniga darhol yangisi tayin etiladi. Oldingi kishiga badal (o'rinbosar) bo'lib kelgani uchun ham ularga “abdol”, ya'ni o'rinbosarlar deb nom berilgan. Ba'zi manbalarda ularning adadi 400 taligi qayd qilingan.

4. **“Avtod”** اوتاد so'zining lug'aviy ma'nosi – qoziqlar. Ular ham abdol kabi zotlar bo'lib, adadlari ba'zi manbalarda 4 nafar deyilsa, ba'zilarida 70 nafar deyilgan.

5. **Nujabo** نجبا – oliy zot bir toifa avliyolarki, ular faqat insonlarning foydasi uchun faoliyat ko'rsatadilar. Ularning odamlar haqqiga qilgan duolari mustajob. Ularning adadi ba'zi manbalarda 70 kishi deyilsa, boshqa bir manbada 40 kishi deb ko'rsatilgan.

6. **Nuqabo.** نقبا Tasavvufda bir toifa avliyolarga shu nom berilgan bo'lib, ular ummatlar uchun zomindirlar. Adadlari – 300 nafar.

“Islom entsiklopediyasi”da qayd etilishicha, tasavvuf o'z tarixiy taraqqiyoti davomida bir-biriga asos bo'lib xizmat qilgan, bir-birini to'ldirgan va davom ettirgan oltmishdan ortiq tariqatni o'z atrofiga birlashtira oldi. Ular orasida mashhur tasavvuf peshvolari g'ayrati bilan maydonga chiqqan va ma'naviy poklanish mashaqqatlari sari da'vat etuvchi qator tarmoqlarga asos bo'lib xizmat qilgan tayfuriya, qodiriya, suxravardiya, junaydiya, xojagon-naqshbandiya, yassaviya, chishtiya, kubraviya, mavlaviya singari yetakchi tariqatlar ham bor.

Tayfuriya. Qadim SHarqda keng tarqalgan so'fiylik ta'limotlaridan biri. Tamal toshlari Boyazid Tayfur ibn Iso Bistomiy (875 yilda vafot etgan) tomonidan qo'yilganligi bois shunday nom bilan yuritiladi. Zamondoshlari va undan keyingi olimlar Boyazid Bistomiyni “sulton ul-orifin” unvoni bilan sharaflaganlar. Biroq u asos solgan ta'limot o'zlikni unutish (g'alaba), Xudo ishqida mast (sukra) va fano (mavjudlikni yo'qotish) bo'lish g'oyalari targ'ibiga yo'naltirilgan bo'lib, mohiyatan mazkur ta'limotda tarkidunyochilik kayfiyati ustuvor edi.

Malomatiya. Tariqatning asosiy qoidalari Hamdun al-Qassor (884 yilda vafot etgan) tomonidan ishlab chiqilgan. Malomatiyaning dunyoga kelishiga Boyazid Bistomiy tomonidan ilgari surilgan tasavvufiy qarashlarning ham o'ziga xos ta'siri bor. Biroq malomatiylik juda ko'p jihatlari bilan, jumladan, o'z xato va qusurlarini e'tirof etish, Haq va el oldida purgunohlikni tan olish g'oyasi bilan alohida e'tirof qozondi va shu jihati bilan o'zidan keyingi tariqatlar rivojiga ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, naqshbandiya tariqati g'oyalari takomilida ham malomatiya ta'sirini yaqqol kuzatish mumkin.

Junaydiya. Bu tariqat asoschisi mashhur so'fiy va faqih Abul Qosim al-Junayd ibn Muhammad al-Qavoririy al-Hazzoz al-Bag'dodiy (910 yilda vafot etgan) hisoblanadi. O'z davrida tayfuriya oqimining tarkidunyochilik g'oyalariga qarama-qarshi oqim sifatida maydonga chiqqan junaydiya tasavvufni ruhiy poklanish hamda farz va sunnat amallarni amaliyotga tadbiiq etish vositasi o'laroq talqin qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Keyinchalik bir qator tariqat peshvolari, jumladan xojagon-naqshbandiya ulug'lari ham, o'z ta'limotlarini ishlab chiqishda junaydiya tariqati g'oyalaridan keng foydalandilar.

Qodiriya. Ushbu tariqatga mashhur mutasavvif, shayx Abdulqodir Giloniy (1077-1166, qabri Bag'dodda) asos solgan. Tariqatda g'oyat yuksak maqomga erishgan shayx Abdulqodir Giloniy SHarqda "G'avsul A'zam", "Qutbul A'zam", "SHayxi Mashriq" nomlari bilan mashhurdir. Qalbni zikr va riyozat ila poklash, farz va sunnatlarni beminnat ado etish, boshqa tariqatlardagi eng yaxshi an'analarga davomchi bo'lish kabilar qodiriyaning muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Suxravardiya. 12-asr oxiri – 13-asr boshlarida Iroq va Movarounnahr hududlarida zohidlik maktabi doirasida tashkil topgan. So'fiy-mutasavvif SHihobiddin Abu Hafc Umar Suxravardiy (1145-1234) uning asoschisi hisoblanadi. Sunnat amallarga jiddiy e'tibor qaratishni bosh g'oya sifatida targ'ib etgan mazkur tariqat, ayniqsa, Hindistonda keng tarqalgan.

CHishtiya. SHarqiy Xurosonda shakllanib, suxravardiya tariqati singari Hindistonda kamolot cho'qqisiga erishgan va keng tarqalgan mazkur ta'limot asoschisi Xo'ja Abu Ishoq ash-SHomiy (1097 yilda vafot etgan) hisoblanadi.

Mazkur tariqat vakillari Allohga tavakkal qilish, tirikchilikni halol mehnat asosiga qurish, mazlum va bechoralarga ko'mak berish kabi amallarni Alloh marhamatiga erishishning muhim sharti hisoblaganlar.

Yassaviya. Mazkur tariqat asoschisi Xoja Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalifasi, Turkiston shayx ul-mashoyixi Xoja Ahmad Yassaviy hisoblanadilar. Xoja Yusuf Hamadoni va Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ta'limoti negizida shakllangan yassaviyada "islom qonun-qoidalari (shariat), tasavvuf maslagi (tariqat), ishq ilohiy (ma'rifat), Alloh visoliga erishish (haqiqat) keng targ'ib etilgan".

Kubraviya. Movarounnahr zaminida 13-asr boshlarida dunyoga kelgan mazkur tariqat asoschisi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy – Najmiddin Kubrodir.

Saxovat, shafqat, ta'madan xoli bo'lish va muhtojlar g'amiga sheriklik – javonmardlik – kubraviyaning bosh shiori hisoblanadi. Tavba, zuhd, tavakkal, qanoat, uzlat, zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizo singari o'n amaliy asosga tayanganligi ham uning g'oyat keng tarqalishiga zamin yaratdi. Majiddin Bag'dodiy, Sa'duddin Hamaviy, Bobo Kamoli CHandiy, Sayfiddin Boxarziy, Najmiddin Roziy, Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy kabi ulug' zotlar kubraviyaning keyingi davrlardagi takomil va taraqqiysiga xizmat qildilar.

Mavlaviya. SHarqda (ayniqsa, Turkiya va Eronda) ancha keng tarqalgan bu tariqat asoschisi mashhur shayx va shoir Jaloliddin Muhammad ibn Bahouddin Muhammad al-Balxiy – Rumiidir. "Rumiyni ko'pincha "mavloni" ("janob") deb atashgan. SHundan tariqat nomi olingan". Mazkur tariqatda ibodatning jahriy zikr va samo' (oshkora zikr va raqs) usullari yetakchilik qiladi.

Xojagon-naqshbandiya. Tamal toshi Xoja Yusuf Hamadoni (1048-1141) va Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (1103-1179) tomonidan qo'yilgan, keyinchalik Xoja Bahouddin

Naqshband (1318-1389) xizmatlari tufayli eng yuksak cho'qqiga erishgan jahonshumul tariqat.

Marmara universiteti (Istanbul) Ilohiyot fakulteti professori Doktor Najdat To'sunning quyidagi qaydlarida naqshbandiya ta'limoti haqida ma'lumotlar batafsil bayon etilgan:

XII asrda diniy bilimlar va shariat ulamolarining markazi hisoblangan Buxoroyi sharifda Abdulxoliq G'ijduvoni asos solgan xojagon tariqati o'sha davr va mintaqaning madaniyatiga uyg'un tarzda shakllandi.

Abdulgʻoliq Gʻijduvoni oʻz tariqatida jahriy zikr, samoʻ va xilvatga keng oʻrin bermay, yangicha uslub qoʻllaydi. Sunnatga eʼtibor berib, bidʼatu xurofotlardan yiroqlashishga ahamiyat beradi. Oʻz muridiga: “Fiqh va hadis ilmini oʻrgan, johil soʻfiylardan yiroq boʻl, moling fiqh kitoblari boʻlsin, seni maqtasalar gʻururlanma, malomat qilsalar ranjima, insonlardan hech narsa tama qilma, futuvvat ahlidan boʻl va Haq taolo senga nima bersa xalqqa ehson qil!”, deya nasihat qilishi uning eʼtiqodida Xuroson malomatiylik tushunchasi va Movarounnahr diniy muhiti jamuljam boʻlganligini koʻrsatadi. Bu sintez keyinchalik xojagon tariqatining bosh xususiyati sifatida davom etdi va taxminan ikki asrdan soʻng naqshbandiya tariqatiga meros boʻlib oʻtdi. Abdulgʻoliq Gʻijduvoni va izdoshlarining tasavvufiy dunyoqarashini uch asosiy tamoyilga ajratib oʻrganish mumkin: islomiy qoidalarga asoslanish; ahli sunna val jamoa eʼtiqodiga rioya; malomatiylik tushunchasiga bogʻliqlik.

Islomiy qoidalarga bogʻliqlik. Xojagon taʼlimotining asosiy xususiyatlaridan biri – amri maʼruf va nahy munkarga qattiq rioya qilish, din ulamolariga hurmat koʻrsatib, bidʼat amallardan saqlanishdir. SHu jihatdan boʻlsa kerak, xojagon maktabi turli bidʼatlardan, botiniylik va hurufiylik kabi botil taʼlimotlar taʼsiridan oʻzini muhofaza eta olgan. Husayn Vassof (vaf. 1929 y.) bu holatni oʻz kitobida bunday ifodalaydi: “Bu oliy tariqatda bidʼat ishlar yoʻqligi va ularning maslaklariga (shariatga nisbatan) eʼtiborsizlik doxil etmaganidan umumislomiy jamoatchilik nazdida (bu tariqat) haqiqiy maʼnoda eʼtirof etilgan va tez orada keng tarqalgan. Bu tarqalishda taʼsirli omil islom ulamosining (xojagonga) ragʻbat koʻrsatishidir”. Husayn Vassofning XX asr boshida bergan bu bahosi xojagonning barcha davrlardagi mavqeiga daxldordir.

Abdulgʻoliq Gʻijduvoni fanoyi nafs martabasiga oʻng qoʻlda Qurʼoni karimni, chap qoʻlda hadisi sharifni ushlagan holda, ularning nuri bilan yurgan kishigina erisha oladi deydi. Muridiga: “Fiqh va hadis ilmini oʻrgan, johil soʻfiylardan uzoq yur!”, deya nasihat qilishi uning diniy hukmlarga nechogʻli eʼtibor berganligini koʻrsatadi. Xojagon mashoyixining: “Xojalar (din olimlari) bizning sayyidlarimiz” deya ulamoi kiromga hurmat bajo keltirganligi maʼlum. Xoja Ali Romitaniyning majlisida olimlardan biri uni maqtab: “Siz magʻzsiz, biz esa poʻstloq”, debdi. SHunda Xoja Ali Romitaniy: “Magʻz poʻstloqning himoyasidadir”, degan ekan. Uning bu soʻzini izohlagan Muhammad Arzangiy yongʻoq poʻstlogʻi (poʻchogʻi)ning shariatga, magʻzining esa tariqatga oʻxshashini, poʻstloqsiz magʻz chirib ketishini bayon etadi. Yaʼni, magʻz poʻstloqqa muhtoj boʻlganidek, tariqat ahli ham shariat olimlariga muhtojdir.

Doʻst va muridlariga diniy amrlarga va ilmga suyanishni tavsiya etgan Sayyid Amir Kulolning: “Biror kishi sizlardan mazhabga doir savol soʻrasa-yu, javob berolmasangiz, bundan ham xunukroq ish boʻlmaydi. Bu holat sizning gʻaflatda ekanligingizni bildiradi... Olimlarga yaqinlashing, chunki ular ummatning mashʼalidirlar”, – degani rivoyat qilinadi. Sayyid Amir Kulolning oʻgʻli Sayyid Amir Hamza Abu Hafs Umar Nasafiyning (XII asr) soʻzlaridan bahs yuritarkan, botil yoʻldagi soʻfiylardan qochib, diniy farmonlarga bogʻliq ravishda yashashni tavsiya etadi.

Bahouddin Naqshband koʻproq hadis ilmidan tahsil olib, ilmga va ilm ahliga katta ahamiyat berardi. SHu xususiyati bois Buxoro madrasalaridagi koʻplab mudarris va talabalar unga murid boʻlishib, suhbatlariga qatnay boshlaganlarida baʼzi olimlar madrasalar boʻshab qolishidan andeshalanganlar. SHunda Bahouddin Naqshband olimlarga: “Tariqatimizni sizga tushuntiraylik, agar shariatga va sunnatga toʻgʻri kelsa yoʻlimizda davom etaveramiz, agar toʻgʻri kelmasa voz kechamiz”, – degan ekan. U halol va harom masalasida juda ehtiyotkor boʻlar, shubhali taomlar yemas, muridlariga ham yedirmas edi. “Biz Allohning lutfi bilan (maʼnan) nimaga erishgan boʻlsak, Qurʼoni karim oyatlari va hazrat paygʻambar alayhissalom hadislariga amal qilganligimizdandir. Bu amaldan biron natijaga

erishmoq uchun taqvo qilib, shariat qoidalariga azimat bilan rioya qilmoq, ahli sunna val jamoa asoslariga amal qilmoq hamda bid'atlardan qochmoq kerak", – deydi Bahouddin Naqshband.

Xoja Ubaydulloh Ahror "Faqarot" asarida fano va baqo martabalariga faqat hazrati payg'ambarga, diniy asoslarga va ahli sunna val jamoa yo'liga ergashish bilangina erishmoq mumkinligini aytadi. U faqirlarning haqqidan qo'rqib, vaqf molni yeyishdan o'zini saqlar edi. Halol ozuqa tasavvuf yo'lida kamolotga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlardi. Payg'ambar alayhissalomga ergashish, olimlarga hurmat ko'rsatish lozimligini aytarkan, ilmni tirikchilik va mansab uchun vosita qilib olgan olimlardan uzoqlashish lozim deydi. U Sayyid Qosim Tabriziyning ba'zi muridlari diniy amallarga rioya qilmaganligi uchun unga intisob etish fikridan voz kechgan ekan.

Xojagon-naqshbandiya mashoyixlari dunyoqarashida islomiy amr va taqiqlarga shunchaki itoatlar bilan emas, balki azimat (taqvo) bilan amal qilish mavzusi muhim o'rin tutadi. Bahouddin Naqshbandning tushida Abdulxoliq G'ijduvoni: "Doimo oyoqni shariat va istiqomat sajjodasiga qo'yish, azimat va sunnat bilan rioya etish, ruxsat va bid'atdan yiroq turish lozim", deya tavsiya qilgani uchun Xoja Bahouddin azimat bilan harakat qilmoq niyatida jahriy zikrni tark etib, xafiy zikrni boshlagan. Hatto rivoyat qilinishicha, sovuq qish bo'lishiga qaramay, diniy fatvoga ko'ra tayammum qilish o'rniga, azimat yo'lini tanlab, Revartun qishlog'idan Qasri Orifonga qadar borib, katta qiyinchiliklar bilan suv topib g'usl qilgan ekan.

Sayyid Amir Kulolning: "Ruxsatlardan uzoqlashing, kuchingiz yetgani qadar azimat bilan amal qiling. Ruxsat bilan amal qilish zaif insonlarning ishidir", degani rivoyat qilinadi. Xoja Muhammad Porso esa: "Ahlullohning usuli farqlidir. Ba'zilari ruxsat bilan amal qiladi, bundan maqsadlari xalqning manfaatidir. Ba'zilari esa azimat bilan amal qiladi, ularning ham maqsadlari xalqning foydasidir. Ammo azimat bilan amal qilish xalq uchun foydaliroq va tahlikadan yanada uzoqdir", degan ekan. Payg'ambar alayhissalom tahajjud namozini to'rt, olti, sakkiz va o'n ikki rakat kabi farqli miqdorlarda ado etilganligi naql etilsa-da, xojagon va ilk davr naqshbandiyolari o'n ikki rakat qilishni ixtiyor etganligi azimat bilan amal qilishga bir dalildir.

Ahli sunnaga bog'liqlik. Ahli sunna val jamoa aqidasi e'tiqod qilingan Buxoro diyorida dunyoga kelib, keng tarqalgan xojagon tariqati islomiyatning sunniy jihatini e'tirof aylagan bo'lib, bu xususiyatini doimo muhofaza etib kelgan. Mashoyixlar silsilasining boshqa ko'plab tariqatlari kabi hazrat Ali (k.v.)ga emas, balki hazrat Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga borib taqalishi ham xojagonning sunniylikka bergan ahamiyati timsolidir.

Muhammad Porso "Fasl ul-xitob" asarida ahli baytga muhabbat mavzusiga to'xtalish bilan birga, shialarni (rofiziylarni) qoralaydigan ba'zi rivoyatlarga ham o'rin berganligi uchun uning bu asari shialar tomonidan ma'qul ko'rilmagan. Abdurahmon Jomiy ham "Nafahot ul-uns" asarida Safiyuddin Ardabiliy, uning o'g'li Sadriddin Ardabiliy, SHoh Ne'matulloh Valiy Kirmoniy, SHayx Ozariy (Jamoliddin Ali Hamza) Tusiy Isfarayoniy va Sayyid Muhammad Nurbaxsh kabi shia aqidasi moyil deya taxmin qilingan ba'zi so'fiylarni zikr etmagan. Jomiy bu asarida xojagon va naqshbandiy shayxlarini tilga olarkan, ularning ahli sunna val jamoa mazhabiga mansubligini maxsus ta'kidlagan. Lekin bir she'rida: "Deydilarki: Ey Jomiy, qaysi mazhabdansen? Yuz marta shukrki, na sunniy ko'ppagiman va na shia eshagi", – deganligi uning mutaassib bir sunniy emasligini ko'rsatadi.

Tasavvuf yo'lida ilgarilash uchun ahli sunna e'tiqodiga rioya qilish lozimligi, chunki ahli sunna firqai nojiya (najot topgan guruh) ekanligini qayd etgan Xoja Ubaydulloh Ahror: "Agar xojagon tariqati darvishlarining e'tiqodini so'rasalar, ular ahli sunna val jamoa e'tiqodidalar, deb ayt", deydi. Ahroriya sho'basidan SHahobiddin G'ovand Mahmud (vaf. 950/1543 yildan keyin) ham: "SHayxlarimizning usuli hazrat payg'ambar sunnatiga va ahli sunna val jamoa mazhabiga ergashmoqdir", degan ekan.

Xojagon-naqshbandiya keng tarqalgan davrlarda ahli sunna val jamoa e'tiqodining eng ashaddiy raqibi shialar edi. Lekin XVI asr boshiga qadar xojagon mansublari bilan shia orasida qaltis bir nizo chiqmagani uchun bu mavzu jiddiy xavf tug'dirmagan. XVI asrda Eronda Safaviylar davlati tashkil topib, sunniy olimlar va so'fiylarga bosqin boshlanganida, eng ko'p xojagon vakillari zarar ko'rganligi tarixiy haqiqatdir.

Safaviylarning bosqinlari tufayli xojagon mansublari Xuroson va Eron tuproqlaridan ko'chib keta boshlaganliklari, naqshbandiylikning Hindiston va Onado'li o'lkalarida tez tarqalishiga imkon ochdi. Naqshbandiya vakillarining usmonli va shayboniy davlat rahbarlari bilan munosabatlari mustahkamlandi. Sunniy rahbarlar safaviy shialarga qarshi naqshbandiylardan unumli foydalanishni nazarda tutgan bo'lishlari ham ehtimoldan xoli emas.

Abdulxoliq G'ijduvoniyni izdoshlari hisoblangan xojagon mansublari bilan shialarning bir-birlariga muxolif bo'lishlari sababli xojagon tariqati shia va alaviy ta'siridan o'zini muhofaza eta bildi. Lekin bu ziddiyat tufayli xojagonning ahli baytga bo'lgan ehtiromi zarracha kamaymadi.

Malomat tushunchasi asoslariga bog'liqlik. IX asrda Nishopurda Hamdun Qassor (vaf. 271/884 y.) asos solgan malomatiylik maktabining bosh asoslari davrlar o'tishi mobaynida boshqa tariqatlarga ham ta'sir qilgan. Bular orasida eng ko'p ta'sirlangan tariqat xojagon sulukidir. Xojai Jahonning "Vasiyatlar" kitobi nazardan o'tkazilganda, Xuroson so'fiylarining malomatiy qarashlari izlari ochiq-oydin ko'rinadi.

Lug'atlarda yozilishicha, "malomat" so'zi "malomat qilish, qoralash, ayblash" kabi ma'nolarni bildiradi. Ya'ni, malomatiylikda inson o'z toat-ibodatlarini noqis bilib, nafsini malomat qilishi, shu bilan bir qatorda boshqalarning ham uni malomat qilishidan qo'rqmasligi asosiy qoida hisoblanadi. Qur'oni karimning *"Allohning (toati) yo'lida jiddu jahd qiluvchi, malomatchining malomatidan qo'rqmaydigan bo'lurlar"* (Moida, 54) oyati karimasi ushbu qoidaga misol bo'la oladi. Lekin malomat tushunchasi shu bilangina kifoyalanmaydi. Xalqning malomatiga qolish uchun malomatiylar qilgan yaxshi ishlarini ko'rsatmasligi, yomon ishlarni esa yashirmasligi lozim. Ularda "insonlarning uzoqlashishlariga sabab bo'ladigan xatti-harakatlarni namoyish qilish kerak" degan fikr ilgari suriladi. Boyazid Bistomiyni xalqning iltifotidan siqilib, ularni o'zidan uzoqlashtirmoq maqsadida Ramazon oyida ro'zasini ochishi, tepalikka chiqib: *"Men sizlarning eng oliy Parvardigoringizdirman"* (Noziat, 24) deya hayqirishi bunga misoldir. Malomatiylar xalqning e'tibori, iltifoti tufayli yuzaga keladigan kibr va ujbdan saqlanmoq uchun bunday ishlarni o'zlari uchun joiz deb bilganlar. Lekin keyingi asrlarga kelib, ba'zi qalandariy mashrab so'fiylar bu ishda haddan oshib, xalqning malomatiga sazovor bo'lish uchun soch, soqol, mo'ylov va qoshlarini taroshlab (chahorzarb urish), odamda nafrat qo'zg'aydigan turfa xil kiyimlar kiyishgacha borishgan. Abdurahmon Jomiy o'z davrida malomatiylarga o'xshaganlarni ikki guruhga ajratib, haqiqiylarini qalandariy, soxtalarini esa oshkora gunoh qiluvchi zindiq deya ifodalaydi.

Malomat tushunchasining muhim asoslaridan biri so'fiyning o'z ma'naviy holini yashirishi, shuhrat va riyodan qochishidir. SHu maqsadda ular xalq orasida orif bir so'fiy sifatida yurgandan ko'ra el qatori oddiy bir inson bo'lib yurishni ixtiyor etadilar. Riyodan saqlanish uchun karomatlarini sir tutadilar. Samo' majlislarida vajdga kelib, raqsga tushishdan, baland ovoz bilan (jahriy) zikr qilishdan, tariqatga mansubligi ko'rsatadigan maxsus kiyim kiyishdan, hatto takya – xonaqoh barpo etmoqdan saqlanadilar. Tariqat marosimlariga ahamiyat bermaydilar, hashamatli maqbaralar qurmaydilar, o'zlari uchun ham qurdirmaydilar. Futuvvat nash'asida esa fidokor va jo'marddirlar. Qo'l mehnati bilan kun kechirishga ahamiyat beradilar. Bu xususiyatlarni Abdulxoliq G'ijduvoniyni va u asos solgan xojagon tariqati vakillarida ham ko'rish mumkin.

X asrda paydo bo'lgan malomat tushunchasi XII-XIII asrlarda bir-biridan farqli ikki yo'nalishda shakllandi. Bulardan biri qalandariy mashrab tariqatlardan haydariya va javlokiya bo'lsa, ikkinchisi, diniy qoidalariga mahkam amal qiluvchi va malomatiy qarashlarni ilgari surgan xojagon tariqatidir.

Malomatiylarning tasavvufiy qarashlari bilan Abdulkholiq G'ijduvoniylar va izdoshlarining fikr-qarashlari qiyoslanganda malomatiylik tushunchasi xojagon ta'limotiga nechog'li ta'sir ko'rsatgani yanada ravshanlashadi.

a) malomat qiluvchining malomatidan qo'rqmaslik. Abdulloh Ansoriy (vaf. 481/1089 y.) malomatiylikni "Haq taolo yo'lida xalqning qoralashlaridan qo'rqmaslik" deya ta'riflaydi. Abdulkholiq G'ijduvoniylar muridiga tavsiyalarida: "Xalqning seni maqtashi bilan yomonlashi sening nazaringda bir xil bo'lsin hamda xalqning malomatidan ranjima" deydi. Badavlat oila farzandi Alouddin Attor akalarining to'sqinlik qilishlariga qaramasdan, bozorda olma sotaveradi. Boshqa bir rivoyatga ko'ra esa Attor Bahouddin Naqshbandga murid bo'lishni istaganida Naqshband hazratlari ho'kiz ishkambasining ichini tashqariga o'girib, boshiga qo'yib kelishni buyurganida Attor bozordagilarning malomatlariga e'tibor bermay, ustozining amrini bajo keltirgan.

b) el qatori bir inson kabi yurish, tariqat belgisini bildiruvchi maxsus kiyim kiyimaslik va shuhratdan saqlanish. Malomatiylardan Abu Hafs Haddod (vaf. 264/878) ko'chada el qatori oddiy kiyinib yurar, uyga kelganida so'fiylik xirqasini kiyardi. Abu Abdurahmon Sulamiy (vaf. 412/1021) xalq qanday kiyinsa, shunday kiyinishni malomatiylarning asosiy qoidalari orasida tilga oladi. Malomatiylar o'z ma'naviy ahvolini yashirish uchun so'fiyona xirqa va toj o'rniga savdogar yo ulamolar kiyimini kiyishni ixtiyor etganlar.

Xojagon va naqshbandiyaning ilk davrlariga nazar solinganda, maxsus bir andoza va rangda xirqa yo toj kiyishning mavjud bo'lmaganligi ko'rinadi. Keyingi asrlarda usmonli naqshbandiylari davr va mintaqa an'anasiga ko'ra maxsus tojlar kiygan bo'lsalar-da, bu narsa hech vaqt tariqatning bosh qoidasi bo'lmagan. Boz ustiga ko'plab naqshbandiya mashoyixi ulamo kabi oddiy salla o'raganlar yoki oddiy bir yopinchiq tashlab yurishni afzal bilganlar. Husayn Vassof ham bu xususni quyidagi jumlasida maxsus ta'kidlaydi: "Naqshbandiya tariqati soliklarida boshqa tariqatlarda bo'lganidek maxsus bir libos yo'q. (Ularda) har kim maslagiga ko'ra kiyinadi. Naqshbandiya mashoyixi esa, asosan, ulamo qiyofasida yuradilar..."

Xojagon davriga mansub va taxminan XIV asrning o'rtalarida Muhammad As'ad Buxoriy tomonidan qalamga olingan "Maslak ul-orifin" asarida muridlarning ma'naviy darajalariga ko'ra farqli ranglarda xirqa kiyganliklari bayon etilsa-da, bu an'ana naqshbandiylarning emas, ko'proq kubraviylar kabi boshqa tariqatlarda namoyondir. Mazkur asarda bu ma'lumotlar boshqa tariqatlardagi holatni tushuntirish niyatida qayd etilgan bo'lishi mumkin. Zero, xojagon ulug'lari: "Bizga ko'ra xirqa emas, hirfa (maslak, kasb-hunar) muhimdir" deganlar.

v) xilvat. Malomatiylikning eng muhim asoslaridan biri shuhratdan qochishdir. Abdulkholiq G'ijduvoniylar va qolgan ba'zi xojagon vakillari "xilvatda shuhrat bor, shuhratda ofat" fikri bilan xilvatga ko'p ahamiyat bermaganlar va "xalq orasida Haq bilan bo'lish" deya ta'riflangan "xilvat dar anjuman" qoidasini qabul qilganlar. Abdulkholiq G'ijduvoniylar "xilvat eshigini yop, suhbat eshigini och", Bahouddin Naqshband esa "Yo'limiz suhbat yo'lidir, xilvatda shuhrat, shuhratda ofat bor" deganlar.

Rivoyat qilinishicha, Sayyid Amir Kulolning o'g'li va xalifasi Sayyid Amir Hamzadan bir shayx: "Tariqatingizda nima uchun xilvatda o'tirishga kam e'tibor beriladi?" deya so'raganida, Amir Hamza: "Xilvatda ham suhbat qurish uchun bir rafiq kerak", – deya javob bergan ekan. Bu shayx Amir Hamzaga xilvatda rafiq bo'la olishini aytganida, Amir Hamza: "Sizning xilvatingiz qanday?", – deya so'radi. SHayx: "Bir ko'za suv va qirq dona mayiz bilan qirq kunni o'tkazamiz", – deydi. Amir Hamza: "Bizning xilvatimiz esa bir tahorat bilan xilvatga kirish, har kuni bir qo'y yeyish va qirq kun o'sha tahorat bilan namoz o'qishdir", – deydi. Xoja Naqshband Amir Husaynning savoliga javoban tariqatida xilvat va samo'ning o'rniga "xilvat dar anjuman" qoidasi borligini aytgan.

Jamiyat orasida tanho bo'lish degan ma'noni bildiruvchi "xilvat dar anjuman" atamasi so'fiyning bir chekkada o'tirmasdan, xalq orasida bo'lishi, lekin jisman odamlar orasida bo'lsa ham, botinan ulardan uzoqda, Alloh bilan birga bo'lishni bildiradi. Zohirda xalq bilan, haqiqatda esa Haq bilan, "Dast ba kuru dil ba Yor" – qo'l ishda, ko'ngil Yorda, "tan dar bozoru dil ba Yor" – tan bozorda, qalb yorda kabi shiorlar xuddi shu mazmunda qo'llanilgan. "Xilvat dar anjuman" qoidasi: *"Ertayu kech U zotni poklaydigan kishilar bordirki, ularni na tijorat va na savdo (ishlari) Allohning zikridan, namozni barkamol ado etishdan va zakot berishdan chalg'ita olmas"* (Nur, 37) oyatiga ko'ra qabul qilingan. Bahouddin Naqshband hajga borganida Mino bozorida bir o'smirning besh ming dinorlik savdo qilayotganini, lekin qalbining bir lahza bo'lsa ham Allohdan g'ofil bo'lmaganini mushohada etib, u haqda faxr bilan so'zlagan ekan.

Abdulxoliq G'ijduvoniyniing muridlaridan Avliyo Kabir "xilvat dar anjuman"ni izohlarkan, shunday degani naql etiladi: "Doimiy zikr qilgan odam zikrdan hosil bo'lgan vajdu istig'roq bilan shunday bir martabaga yetadiki, zikr qalbini qurshab olganidan zokir bozorga kirsam ham hech qanday ovozni eshitmaydi". Xoja Ubaydulloh Ahror ham zikrga berilgan soliklarning besh-olti kun shunday holni his qilganliklarini, xalqning shovqinini zikr sadolaridek eshitganlarini bayon etadi. Maxdumi A'zam Ahmad Kosoniy fikricha, "xilvat dar anjuman"ning botiniy ma'nosi kasratda vahdatni (ko'pchilik orasida birlikni) mushohada etmoqdir. "Bandam menga nafl ibodatlar bilan yaqinlashadi, oqibatda uni sevaman. Uni sevgach, uning eshitadigan qulog'i, ko'radigan ko'zi, gapiradigan tili va ushlaydigan qo'liga aylanaman. Men bilan eshitadi, men orqali ko'radi..." mazmunidagi qudsiy hadisda "xilvat dar anjuman" qoidasi ilgari surilgan. SHu jihati bilan bu qoida o'rta darajali so'fiylarning emas, tasavvufiy tarbiyasi nihoyasiga yetganlarning maqomidir. Xalq orasida Haq bilan birga bo'lish, ya'ni so'fiyning dunyoviy ish bilan mashg'ul bo'lishiga qaramay, el qatori bir inson sifatida yashashi, shu orqali ma'naviy holini atrofidagilardan maxfiy tutishini bildiruvchi bu qoida malomatiylik tushunchasiga borib taqaladi.

Binobarin, xojagon vakillari orasida xilvat qoidasining joriy qilinishiga ijobiy ma'noda qaraydiganlari ham bo'lgan. Masalan, xojagon-naqshbandiya odobu arkoniga doir "Maslak ul-orifin" asarining yigirma uchinchi bobi sharoiti chilla (xilvat shartlari)ga bag'ishlangan. Muallif xilvatning soliklar uchun foydali va zarur bir usul ekanligini tilga olarkan, xilvatning o'n shartini bayon etadi. Xojagon mashoyixidan Ali Romitaniyga nisbat etilgan "Risola" asarida ham xilvat mavzusi ijobiy tarzda anglatilib, uning qator fazilatlarini xususida bahs yuritilgan. Demak, Abdulxoliq G'ijduvoniyy mumtoz xilvat o'rniga "xilvat dar anjuman" qoidasini tatbiq etgan bo'lsa-da, undan keyingi ba'zi xojagon mashoyixi xilvatni foydali bir usul sifatida qo'llayverganlar.

g) *ma'naviy holni yashirish, riyo bo'lmasligi uchun karomatni izhor etmaslik.* Malomatiylar riyo va shuhratdan qochganlari bois karomatni sir tutishga alohida ahamiyat berganlar. Xojagon maktabi a'zolari ham kashfu karomatni yashirishga e'tibor berganliklari manbalarda rivoyat qilinadi. Bahouddin Naqshbandning aynan shu holatni ifodalashga qaratilgan quyidagi bayti uning suhbatlarida o'qilgan ekan:

***Az darun shav oshino vaz berun begonavash,
In chunin zebo ravish kam mebuva andar jahon.***

(Botinda Haqqa oshno bo'l, zohirda esa begonadek ko'rin. Bunday go'zal bir usul jahonda kam topiladi).

Xoja Ubaydulloh Ahrorning xalifalaridan Ismoil SHirvoni o'zining olimlik jihatini namoyon etib, tasavvufiy tarafini maxfiy tutishga harakat qilgani uchun Xoja Ahrorning evarasi Muhammad Qosim tomonidan: "Tariqati malomatiyaning pahlavonlaridandir" deya madh etilgan. Xoja Ubaydulloh Ahrorning o'g'li Muhammad Yahyoning muridlaridan Hofiz Muhammad Samarqandiy Istanbulga tashrif buyurganida Muhyi Gulshaniyga: "Xojagon tariqati malomatiy mashrab bo'lgani bois zoviya (takya)ga shayx bo'lishga intilma, balki har kuru holda o'z holingni yashirin tut, xalqning malomatidan alam chekma!", – deya nasihat qilgan.

d) raqsu samo' va jahriy zikrdan qochmoqlik. Ma'naviy hollarini izhor aylashdan saqlangan malomatiylar ko'pincha samo' (musiqqa tinglash), raqs (vajdga kelib sollanish) va baland ovoz bilan zikr qilishdan uzoq bo'lishni ixtiyor etganlar. Bir malomatiydan: "Nima uchun samo' majlislarini tark etasizlar?" deya so'rganlarida: "Samo' yig'inlarini va uning joizligini inkor etmaymiz, balki sir tutganimiz hollarning oshkor bo'lishidan qo'rqib, samo' majlisini tark etamiz", – deya javob bergan ekan. Bu jumla Bahouddin Naqshbandning: "Samo'ni inkor etmaymiz, unda qatnashmaymiz ham" kalomiga o'xshaydi. Zero, G'ijduvoni qoidalarini aynan qabul qilgan Xoja Naqshband samo' qilmagan va muridlarini ham samo' majlisida o'tirishdan qaytargan. Sulamiy o'z risolasida malomatiylarning samo' vaqtida sollanmasligi va na'ra tortmasligini bayon etadi.

Abdulxoliq G'ijduvoni muridiga: "Samo' majlislarida ko'p o'tirma, zero nifoq hosil bo'lib, samo'ning ortig'i dilni o'ldiradi. Lekin samo'ni inkor etma, samo' qiluvchilar ko'p. Samo' faqat qalbi tirik va nafs o'lik kishigagina joiz. Bunday holga erishmagan kimsaga samo' halol va muboh emas".

Jahriy zikr mavzusida ham shunday. Malomatiylar dil zikriga lutf va ne'mat zikri, jahriy zikrga esa odat va shakl zikri demishlar va qalb (xafiy) zikrining afzalligini e'tirof aylaganlar. Xojagon va naqshbandiylar ham asosan maxfiy zikrga rioya qilib kelganlar. Zero, Abdulxoliq G'ijduvoni Xizr alayhissalomning tavsiyasi bilan hovuzda, suv ostida zikri xafiy boshlab bergan.

Xojagon tariqatida Xoja Mahmud Anjirfag'naviydan keyin xafiy zikr bilan bir qatorda jahriy zikr qilingan bo'lsa-da, bu davrda musiqqa va samo'ga ortiqcha e'tibor berilmagan. XV asrdan keyin jahriy zikr qiluvchi naqshbandiylar samo'ni ham ijro etganlar.

Abdulxoliq G'ijduvoni madrasa va ulamolar bilan to'lgan Buxoroyi sharifda ular bilan ziddiyatga kirishmasdan o'z tariqatini joriy etish maqsadida xafiy zikr usulini tanlagan bo'lishi mumkin. Undan keyin xalifalari ham ushbu usulga rioya qilganlar, ammo shogirdi Xoja Orif Revgariyning talabasi Mahmud Anjirfag'naviy jahriy zikr qilishni afzal ko'rgan va to Bahouddin Naqshbandga qadar jahriy zikr usuliga rioya qilib kelingan. Ruhlar olamida ulug' ustoz Abdulxoliq G'ijduvoni xafiy zikr qilishga buyurilgan Bahouddin Naqshband tariqatni yana maxfiy zikr usuliga qaytargan.

e) xizmat ahli, fidokor va jo'mard bo'lmoq. Malomatiylik futuvvat tushunchasi ta'siri ostida shakllangani bois fidokorlik va xizmatga alohida ahamiyat beradi. Malomatiylar xalqqa xizmat qilishadi, lekin o'zlariga xizmat qilinishini istamaydilar. Sulamiy malomatiylarning

qoidalarini sanar ekan, insonlardan yordam so'ramaslikni ham tilga oladi. Hamdun Qassor: "Yaratilmishning yaratilmishdan yordam so'rashi zindondagi kishining zindondagi kimsadan yordam so'rashi demakdir", – deydi. Xojagon vakillari ham xalqqa xizmat qilishga alohida ahamiyat berishar, lekin o'zlari uchun iltifot ko'rsatilishini xohlamas edilar. Bu haqda Abdulkholiq G'ijduvoniyni: "Insonlardan biron narsa tama qilma!" va "Javonmard, saxiy bo'l. Alloh taolo senga in'om etgan ne'matlardan xalqqa ehson qil!" kabi tavsiyalari namuna bo'la oladi. SHuningdek, "Rashahot" muallifining otasi, naqshbandiylardan Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" nomli maxsus asar yozganligi xojagon ta'limotida futuvvat nash'asiga nechog'li e'tibor berilishining qat'iy bir dalilidir.

Abdulkholiq G'ijduvoni vasiyatlarida: "Mashoyixga badaning bilan jismonan xizmat qil!", – deydi. Bahouddin Naqshband ham ustoz Amir Kulol xonaqohida yelkasida o'tin tashigan. Xoja Ali Romitaniyning "Do'stimning kelishiga vosita bo'lgan bu hayvondir" deya do'stidan oldin uning ulovini yedirib-ichirganligi naql etiladi. Bahouddin Naqshbandning uyiga ziyoratchi yo mehmon kelsa, izzat-ikrom ko'rsatardi. Bir safar betob bo'lib qolganida, Buxorodan muridlari kelishgan. Bemorligiga qaramay, mehmonlarni tabassum bilan kutib olgan, hatto mehmonlar uchun muridlari bilan bozordan qo'y olib kelishayotganida hazrat Naqshband qo'yni yelkasida ko'tarib kelgan ekan. Bu rivoyatlar xojagon vakillarining malomatiylar kabi xalqqa xizmat qilishga ko'rsatgan ahamiyatlaridan dalolat beradi.

yo) halol mehnat bilan tirikchilik qilish. "Bir mo''minning halol mehnat qilmasligi tilanchilikda ilgarilashi demakdir", – degan Hamdun Qassor bir kun Abdulloh Hajjomga: "Menimcha, sening "Abdulloh Hajjom" (hajjom – qon oluvchi Abdulloh) deya chaqirilish, "orif" yoki "zohid Abdulloh" deya chaqirilishdan afzalroqdir", – deydi. Malomatiylar mehnat qilib kun kechirishga va topganlarini faqirlarga ikrom qilishga ahamiyat berardilar.

Xojagon shayxlari ishsiz insonlarni muridlikka qabul qilmaganlar, o'zlari albatta biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganlar. Ali Romitaniy to'qimachi, Muhammad Bobo Samosiy bog'bon, Amir Kulol kulol, Bahouddin Naqshband naqqosh – to'qimachi va chorvador, Amir Kulolning o'g'li Amir Hamza ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror chorvador va savdogar bo'lishgan. Bahouddin Naqshband tavakkul holi halol mehnat qilish bilan birga bo'lmog'i lozim degan edi. Bahouddin Naqshbandning uvaysiy piri Hakim Termiziy (vaf. 320/932 y.) ham mehnat bilan kun kechirishga ahamiyat bergan mutasavviflardan bo'lib, bu mavzuda hatto "Bayon ul-kasb" nomli asar bitgan ekan.

Muhammad Porso malomatiylarni anglash xojagonni tushunishda muhim o'rin tutajagini bildirgan. Porso xojagon suluki Boyazid Bistomiy, Salmoni Forsiy va Abu Bakr Siddiq vositasida hazrat payg'ambarga tutashishi, bu uch zotning ham malomat ahlining buyuklaridan bo'lganligini ifodalaydi. Uning "Fasl ul-xitob" kitobida malomat ahlining ahvoliga doir bayon etilgan xususlar ayni vaqtda xojagon shayxlarining hollaridir. Xoja Ubaydulloh Ahrorning muridlaridan Abdulloh Ilohiy (vaf. 896/1491 y.) bunday deydi: "Malomatiylar toifasining maqomi jami maqomotdan balanddir... Sunnati muakkada va farzlarni cho'zmaydilar. Ortiqcha amallardan ko'p umid qilmaydilar, balki Haq taoloning fazlidan umidvorlar". Bu yerdagi malomatiylik ta'rifi bilan Bahouddin Naqshbandning: "Biz Allohning lutfiga bog'langanlarmiz" va "Bizni lutf eshigidan kirgazdilar. Vazifamiz farz, vojib va sunnati muakkadalarni ado etmoqdir" kabi so'zlari bir-biriga muvofiqdir. Abdulloh Ilohiy solikning sifatlaridan so'z yuritarkan, murid malomatiy sifatli va qalandariy siyratli bo'lmog'i lozimligi, haqiqiy malomatiylik diniy asoslarni e'tiborga olmaydigan bid'at va zalolat yo'lidan xoli va musaffo ekanligini yozadi.

Musulmon dunyosining turli diyorlarida yuzaga kelgan har bir tasavvuf maktabi o'sha mamlakatning diniy, ijtimoiy va madaniy hayotiga mos ravishda shakllangandir. Buxoroyi

sharifda barpo etilgan xojagon tariqati ham o'sha davrda ilm va ma'rifat markazi hisoblangan bu o'lkaning madaniy turmush tarziga uyg'un tarzda shakllandi.

Abdulkholiq G'ijduvoni va uning izdoshlari bo'lmish xojagon vakillari malomatiylik tushunchasidan kuchli ta'sirlanganlar, lekin ular bu tushunchani islomiy qonun-qoidalariga bog'liq holda tatbiq etganlar. Hijriy III asrda yuzaga kelgan malomatiylik dunyoqarashi VI asr ikkinchi yarmi va VII asr boshlarida (m. XII-XIII asrlar) bir-biridan farqli ikki jihatda rivojlandi. Qalandariy tariqatlar sifatida Eron zaminida vujudga kelgan haydariya va javlokiya tariqatlarida malomatiylik tushunchasi diniy qoidalardan uzoqlashib, g'ayri islomiy tomonga og'ib ketgan. Ayni davrda Movarounnahrda paydo bo'lgan xojagon tariqati esa malomatiya dunyoqarashini islomiy asoslarga mahkam rioya qilgan holda amaliyotda tatbiq etgan.

SHuningdek, Abdulkholiq G'ijduvoni va izdoshlari islomiyatni kitobiy va sunniy (Qur'on va sunnatga muvofiq) joriy qilganliklari uchun shia, botiniy va hurufiy kabi botil oqimlardan ta'sirlanmaganlar. Ahli sunna val jamoa e'tiqodiga sodiq qolganliklari sababli xojagon davomchilari, sunniy davlat rahbarlari bilan yaxshi va do'stona munosabatlarda bo'lganlar, Erondagi safaviy shialariga qarshi ular bilan hamkorlik qilganlar.

1.2. Hazrati Bahovuddin Naqshbandning hayoti va tasavvufiy qarashlari.

O'zbekiston qadim-qadimdan ulug' allomalar, valiy insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan yurt. Bu tabarruk zaminda islomiy ilmlarning barcha turi rivojlanib, dunyoga mashhur nazariy tadqiqotlar yaratilgan, o'ziga xos mavqega ega ilmiy maktablar shakllangan. Jumladan, inson qalbini poklash, uni ruhiy-ma'naviy jihatdan yuksaltirishni maqsad qilgan tasavvuf ta'limoti ham yurtimizda keng taraqqiy etdi. Dunyoga mashhur uch buyuk tariqat –yassaviya, kubraviya, naqshbandiya tariqatlarining Markaziy Osiyoda paydo bo'lgani ham buning yorqin dalilidir. Tariqatlar islomiy g'oyalarni tarqatish, Xudoga bo'lgan muhabbat orqali taqvo va tavhidni chuqurroq anglash, uni go'zal axloq normasiga aylantirish, nopok ishlar, yomon axloq va badnafslikka qarshi kurashish bilan shug'ullanib kelganlar. Ayniqsa, naqshbandiya tariqati bu borada el orasida alohida obro'-e'tiborga sazovor bo'lib, uning ta'siri Markaziy Osiyodan tashqarida ham sezilib turgan. Turkiya, Kavkaz, Rossiya, Hindiston, Janubiy Osiyo o'lkalarida uning tarafdorlari ko'paygan, ular hozir ham bor. Buning boisi, birinchi navbatda, tariqat asoschisi Bahouddin Naqshband hazratlarining shaxsiyati, u yaratgan ta'limotning hayotiyligi va qulayligidir.

“Naqshband” (naqsh soluvchi) nomi bilan mashhur bo'lgan Bahouddin Muhammad 1318 yilda Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilganlar. Ilohiy iste'dod sohibi bo'lgan bu zot avval Xoja Muhammad Boboyi Samosiy, so'ngra Sayyid Amir Kulol qo'lida tarbiyalanib, tariqat odobi, tasavvuf ta'limotini egalladilar. SHu bilan birga, Xalil ota va Qusam SHayx suhbatlarida bo'ldilar. Ammo ul zotning o'z e'tiroflariga ko'ra, butun qalblari bilan Xojai Buzurg – Xoja Abdulkholiq G'ijduvoni ruhoniyyatiga bog'langanlar. Ya'ni Bobo Samosiy hazrat Bahouddinni “qabul nazari” bilan kashf etgan bo'lsa, Amir Kulol tariqat odobini o'rgatgan. Ammo ruhoniyyat jihatdan hazrat Bahouddinning piri murshidlari Abdulkholiq G'ijduvoniylidir. CHunki Bahouddin Naqshband o'zlarini xojagon tariqatining davomchisi deb hisoblab, ushbu tariqat g'oyalarini rivojlantirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Abdulkholiq G'ijduvoni o'z tariqatida jahriy zikr, samo' va xilvatga keng o'rin bermay, yangicha uslub qo'llaydi. Sunnatga e'tibor berib, bid'atu xurofotlardan yiroqlashishga ahamiyat beradi. O'z shogirdlariga: “Fiqh va hadis ilmini o'rgan, johil so'fiylardan yiroq bo'l, moling fiqh kitoblari bo'lsin, seni maqtasalar g'ururlanma, malomat qilsalar ranjima, insonlardan hech narsa tama qilma, futuvvat ahlidan bo'l va Haq taolo senga nima bersa xalqqa ehson qil!”, deb doimiy aytib yurganlar va shunga da'vat etganlar. Bu qoida keyinchalik xojagon tariqatining bosh xususiyati sifatida davom etdi va taxminan ikki asrdan so'ng naqshbandiya tariqatiga meros

bo'lib o'tdi. Abdulxoliq G'ijduvoniylar va izdoshlarining, jumladan xojagon-naqshbandiya tariqati uchun asosiy tamoyilga tayanadi: islomiy qoidalarga asoslanish; ahli sunna va jamoa e'tiqodiga rioya; malomatiylik (o'zini o'zi malomat qilish) tushunchasiga bog'liqlik.

Islomiy qoidalarga bog'liqlik. Xojagon-naqshbandiya tariqati ta'limotining asosiy xususiyatlaridan biri – amri ma'ruf va nahy munkarga qattiq rioya qilish, din ulamolariga hurmat ko'rsatib, bid'at amallardan saqlanishdir. SHu jihatdan bo'lsa kerak, xojagon maktabi turli bid'atlardan, botiniylik va hurufiylik kabi botil ta'limotlar ta'siridan o'zini muhofaza eta olgan. Husayn Vassof (vaf. 1929 y.) bu holatni o'z kitobida bunday ifodalaydi: “Bu oliy tariqatda bid'at ishlar yo'qligi va ularning maslaklariga (shariatga nisbatan) e'tiborsizlik doxil etmaganidan umumislomiy jamoatchilik nazdida (bu tariqat) haqiqiy ma'noda e'tirof etilgan va tez orada keng tarqalgan. Bu tarqalishda ta'sirli omil islom ulamosining (xojagonga) rag'bat ko'rsatishidir”. Husayn Vassofning XX asr boshida bergan bu bahosi xojagonning barcha davrlardagi mavqeiga daxldordir.

Abdulxoliq G'ijduvoniylar fanoyi nafs martabasiga o'ng qo'lda Qur'oni karimni, chap qo'lda hadis sharifni ushlagan holda, ularning nuri bilan yurgan kishigina erisha oladi deydi. SHogirdlariga: “Fiqh va hadis ilmini o'rgan, johil so'fiylardan uzoq yur!”, deya nasihat qilishi uning diniy hukmlarga nechog'li e'tibor berganligini ko'rsatadi. Xojagon mashoyixining: “Xojalar (din olimlari) bizning sayyidlarimiz” deya ulamoi kiromga hurmat bajo keltirganligi ma'lum. Xoja Ali Romitaniylarning majlisida olimlardan biri uni maqtab: “Siz mag'zsiz, biz esa po'stloq”, debdi. SHunda Xoja Ali Romitaniylar: “Mag'z po'stloqning himoyasidadir”, degan ekan. Uning bu so'zini izohlagan Muhammad Arzangiy yong'oq po'stlog'i (po'chog'i)ning shariatga, mag'zining esa tariqatga o'xshashini, po'stloqsiz mag'z chirib ketishini bayon etadi. Ya'ni, mag'z po'stloqqa muhtoj bo'lganidek, tariqat ahli ham shariat olimlariga muhtojdir.

Do'st va muridlariga diniy amrlarga va ilmga suyanishni tavsiya etgan Sayyid Amir Kulolning: “Biror kishi sizlardan mazhabga doir savol so'rasa-yu, javob berolmasangiz, bundan ham xunukroq ish bo'lmaydi. Bu holat sizning g'aflatda ekanligingizni bildiradi... Olimlarga yaqinlashing, chunki ular ummatning mash'alidirlar”, – degani rivoyat qilinadi. Sayyid Amir Kulolning o'g'li Sayyid Amir Hamza Abu Hafs Umar Nasafiylarning (XII asr) so'zlaridan bahs yuritarkan, botil yo'ldagi so'fiylardan qochib, diniy farmonlarga bog'liq ravishda yashashni tavsiya etadi.

Bahouddin Naqshband ko'proq hadis ilmidan tahsil olib, ilmga va ilm ahliga katta ahamiyat berardi. SHu xususiyati bois Buxoro madrasalaridagi ko'plab mudarris va talabalar unga shogird bo'lishib, suhbatlariga qatnay boshlaganlarida ba'zi olimlar madrasalar bo'shab qolishidan andeshalanganlar. SHunda Bahouddin Naqshband olimlarga: “Tariqatimizni sizga tushuntiraylik, agar shariatga va sunnatga to'g'ri kelsa yo'limizda davom etaveramiz, agar to'g'ri kelmasa voz kechamiz”, – degan ekan. U halol va harom masalasida juda ehtiyotkor bo'lar, shubhali taomlar yemas, muridlariga ham yedirmas edi.

“Biz Allohning lutfi bilan (ma'nan) nimaga erishgan bo'lsak, Qur'oni karim oyatlari va hazrat payg'ambar alayhissalom hadislariga amal qilganligimizdandir. Bu amaldan biron natijaga erishmoq uchun taqvo qilib, shariat qoidalarga azimat bilan rioya qilmoq, ahli sunna va jamoa asoslariga amal qilmoq hamda bid'atlardan qochmoq kerak”, – deydi Bahouddin Naqshband.

Bahouddin Naqshband hazratlarining taniqli shogirdlaridan bo'lmish Xoja Ubaydulloh Ahror “Faqarot” asarida fano va baqo martabalariga faqat hazrati payg'ambarga, diniy asoslarga va ahli sunna va jamoa yo'liga ergashish bilangina erishmoq mumkinligini aytadi. U faqirlarning haqqidan qo'rqib, vaqf molni yeyishdan o'zini saqlar edi. Halol ozuqa tasavvuf

yo'lida kamolotga erishish uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlardir. Payg'ambar alayhissalomga ergashish, olimlarga hurmat ko'rsatish lozimligini aytarkan, ilmni tirikchilik va mansab uchun vosita qilib olgan olimlardan uzoqlashish lozim deydi.

Xojagon-naqshbandiya mashoyixlari dunyoqarashida islomiy amr va taqiqlarga shunchaki itoatlar bilan emas, balki azimat (taqvo) bilan amal qilish mavzusi muhim o'rin tutadi. Bahouddin Naqshbandning tushida Abdulxoliq G'ijduvoni: "Doimo oyoqni shariat va istiqomat sajjodasiga qo'yish, azimat va sunnat bilan rioya etish, ruxsat va bid'atdan yiroq turish lozim", deya tavsiya qilgani uchun Xoja Bahouddin azimat bilan harakat qilmoq niyatida jahriy zikrni tark etib, xafiy zikrni boshlagan. Hatto rivoyat qilinishicha, sovuq qish bo'lishiga qaramay, diniy fatvoga ko'ra tayammum qilish o'rniga, qiyinchilik yo'lini tanlab, Revartun qishlog'idan Qasri Orifonga qadar borib, katta qiyinchiliklar bilan suv topib g'usl qilgan ekan.

Ahli sunnatga bog'liqlik. Ahli sunna val jamoa aqidasi e'tiqod qilingan Buxoro diyorida dunyoga kelib, keng tarqalgan xojagon tariqati islomiyatning sunniy jihatini e'tirof aylagan bo'lib, bu xususiyatini doimo muhofaza etib kelgan. Mashoyixlar silsilasining boshqa ko'plab tariqatlari kabi hazrat Ali (k.v.)ga emas, balki hazrat Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga borib taqalishi ham xojagonning sunniylikka bergan ahamiyati timsolidir.

Tasavvuf yo'lida ilgariylash uchun ahli sunna e'tiqodiga rioya qilish lozimligi, chunki ahli sunna firqai nojiya (najot topgan guruh) ekanligini qayd etgan Xoja Ubaydulloh Ahror: "Agar xojagon tariqati darvishlarining e'tiqodini so'rasalar, ular ahli sunna val jamoa e'tiqodidalar, deb ayt", deydi. Ahroriya sho'basidan SHahobiddin G'ovand Mahmud (vaf. 950/1543 yildan keyin) ham: "SHayxlarimizning usuli hazrat payg'ambar sunnatiga va ahli sunna val jamoa mazhabiga ergashmoqdir", degan ekan.

Safaviylarning bosqinlari tufayli xojagon mansublari Xuroson va Eron tuproqlaridan ko'chib keta boshlaganliklari, naqshbandiylikning Hindiston va Onado'li o'lkalarida tez tarqalishiga imkon ochdi. Naqshbandiya vakillarining usmonli va shayboniy davlat rahbarlari bilan munosabatlari mustahkamlandi.

Malomat tushunchasi asoslariga bog'liqlik. IX asrda Nishopurda Hamdun Qassor (vaf. 271/884 y.) asos solgan malomatiylik maktabining bosh asoslari davrlar o'tishi mobaynida boshqa tariqatlarga ham ta'sir qilgan. Bular orasida eng ko'p ta'sirlangan tariqat xojagon sulukidir. Xojai Jahonning "Vasiyatlar" kitobi nazardan o'tkazilganda, Xuroson so'fiylarining malomatiy qarashlari izlari ochiq-oydin ko'rinadi.

Lug'atlarda yozilishicha, "malomat" so'zi "malomat qilish, qoralash, ayblash" kabi ma'nolarni bildiradi. Ya'ni, malomatiylikda inson o'z toat-ibodatlarini noqis bilib, nafsini malomat qilishi, shu bilan bir qatorda boshqalarning ham uni malomat qilishidan qo'rqqanligi asosiy qoida hisoblanadi. Qur'oni karimning "Allohning (toati) yo'lida jiddu jahd qiluvchi, malomatchining malomatidan qo'rqqan bo'lurlar" (Moida, 54) oyati karimasi ushbu qoidaga misol bo'la oladi.

Naqshbandiyaning muhim asoslaridan biri so'fiyning o'z ma'naviy holini yashirishi, shuhrat va riyodan qochishidir. SHu maqsadda ular xalq orasida orif bir so'fiy sifatida yurgandan ko'ra el qatori oddiy bir inson bo'lib yurishni ixtiyor etganlar. Riyodan saqlanish uchun karomatlarini sir tutganlar. Baland ovoz bilan (jahriy) zikr qilishdan, tariqatga mansubligi ko'rsatadigan maxsus kiyim kiyishdan, hatto takya – xonaqoh barpo etmoqdan saqlanadilar. Tariqat marosimlariga ahamiyat bermaydilar. Futuvvat nash'asida esa fidokor va jo'marddirlar. Qo'l mehnati bilan kun kechirishga ahamiyat beradilar. Bu xususiyatlar Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband asos solgan xojagon-naqshbandiya tariqati ta'limotlaridir.

Malomatiylarning tasavvufiy qarashlari bilan Abdulxoliq G'ijduvoniylar va izdoshlarining fikr-qarashlari qiyoslanganda malomatiylik tushunchasi xojagon ta'limotiga nechog'li ta'sir ko'rsatgani yanada ravshanlashadi.

Abdulxoliq G'ijduvoniylar shogirdiga tavsiyalarida: "Xalqning seni maqtashi bilan yomonlashi sening nazaringda bir xil bo'lsin hamda xalqning malomatidan ranjima" deydi. Badavlat oila farzandi Alouddin Attor akalarining to'sqinlik qilishlariga qaramasdan, bozorda olma sotardi. Boshqa bir rivoyatga ko'ra esa Attor Bahouddin Naqshbandga shogird bo'lishni istaganida Naqshband hazratlari ho'kiz ishkambasining ichini tashqariga o'girib, boshiga qo'yib kelishni buyurganida Attor bozordagilarning malomatlariga e'tibor bermay, ustozining amrini bajo keltirgan.

Naqshbandiya tariqatining belgi va qoidalari quyidagilar:

a) el qatori bir inson kabi yurish, tariqat belgisini bildiruvchi maxsus kiyim kiyimaslik va shuhratdan saqlanish. Naqshbandiylar o'z ma'naviy ahvolini yashirish uchun so'fiyona xirqa va toj o'rniga savdogar yo ulamolar kiyimini kiyishni ixtiyor etganlar.

Xojagon va naqshbandiyaning ilk davrlariga nazar solinganda, maxsus bir andoza va rangda xirqa yo toj kiyishning mavjud bo'lmaganligi ko'rinadi. Bizdagi ba'zi bir o'zini naqshbandiylar deganlar ajralib turish uchun maxsus qora salla kiyib yurishlari demak mutlaqo xato va asossizdir. Qora salla kiyib yurish hech vaqt tariqatning bosh qoidasi bo'lmagan. Aksincha, barcha naqshbandiya shayxlari ulamo kabi oddiy salla o'raganlar. Husayn Vassof ham bu xususni quyidagi jumlasida maxsus ta'kidlaydi: "Naqshbandiya tariqatida boshqa tariqatlarda bo'lganidek maxsus bir libos yo'q. (Ularda) har kim o'z ilmiy darajasiga ko'ra kiyinadi. Naqshbandiya mashoyixi esa, asosan, ulamo qiyofasida yuradilar..."

Zero, xojagon-naqshbandiya shayxlari: "Bizga ko'ra xirqa emas, hirfa (maslak, kasb-hunar) muhimdir" deganlar.

b) xilvat. Naqshbandiylarning eng muhim asoslaridan biri shuhratdan qochishdir. Bahouddin Naqshband va u zotning shogirdlari "xilvatda shuhrat bor, shuhratda ofat" fikri bilan xilvatga ko'p ahamiyat bermaganlar va "xalq orasida Haq bilan bo'lish" deya ta'riflangan "xilvat dar anjuman" qoidasini qabul qilganlar. Abdulxoliq G'ijduvoniylar "xilvat eshigini yop, suhbat eshigini och", Bahouddin Naqshband esa "Yo'limiz suhbat yo'lidir, xilvatda shuhrat, shuhratda ofat bor" deganlar.

Rivoyat qilinishicha, Sayyid Amir Kulolning o'g'li va xalifasi Sayyid Amir Hamzadan bir shayx: "Tariqatingizda nima uchun xilvatda o'tirishga kam e'tibor beriladi?" deya so'raganida, Amir Hamza: "Xilvatda ham suhbat qurish uchun bir rafiq kerak", – deya javob bergan ekan. Bu shayx Amir Hamzaga xilvatda rafiq bo'la olishini aytganida, Amir Hamza: "Sizning xilvatingiz qanday?", – deya so'radi. SHayx: "Bir ko'za suv va qirq dona mayiz bilan qirq kunni o'tkazamiz", – deydi. Amir Hamza: "Bizning xilvatimiz esa bir tahorat bilan xilvatga kirish, har kuni bir qo'y yeyish va qirq kun o'sha tahorat bilan namoz o'qishdir", – deydi. Xoja Naqshband Amir Husaynning savoliga javoban tariqatida xilvat va samo'ning o'rniga "xilvat dar anjuman" qoidasi borligini aytgan.

Jamiyat orasida tanho bo'lish degan ma'noni bildiruvchi "xilvat dar anjuman" atamasi so'fiyning bir chekkada o'tirmasdan, xalq orasida bo'lishi, lekin jisman odamlar orasida bo'lsa ham, botinan ulardan uzoqda, Alloh bilan birga bo'lishni bildiradi. Zohirda xalq bilan, haqiqatda esa Haq bilan, "Dast ba kuru dil ba Yor" – qo'l ishda, ko'ngil Yorda, "tan dar bozoru dil ba Yor" – tan bozorda, qalb yorda kabi shiorlar xuddi shu mazmunda qo'llanilgan. "Xilvat dar anjuman"

qoidasi: “Ertayu kech U zotni poklaydigan kishilar bordirki, ularni na tijorat va na savdo (ishlari) Allohning zikridan, namozni barkamol ado etishdan va zakot berishdan chalg’ita olmas” (Nur, 37) oyatiga ko’ra qabul qilingan. Bahouddin Naqshband hajga borganida Mino bozorida bir o’smirning besh ming dinorlik savdo qilayotganini, lekin qalbining bir lahza bo’lsa ham Allohdan g’ofil bo’lmaganini mushohada etib, u haqda faxr bilan so’zlagan ekan.

Abdulxoliq G’ijduvoniyni shogirdlaridan Avliyo Kabir “xilvat dar anjuman”ni izohlarkan, shunday degan: “Doimiy zikr qilgan odam zikrdan hosil bo’lgan vajdu istig’roq bilan shunday bir martabaga yetadiki, zikr qalbini qurshab olganidan zikir bozorga kirsam ham hech qanday ovozni eshitmaydi”. Xoja Ubaydulloh Ahror ham zikrga berilgan soliklarning besh-olti kun shunday holni his qilganliklarini, xalqning shovqinini zikr sadolaridek eshitganlarini bayon etadi. Naqshbandiya tariqatining buyuk islohotchisi Maxdumi A’zam Ahmad Kosoniy fikricha, “xilvat dar anjuman”ning botiniy ma’nosi kasratda vahdatni (ko’pchilik orasida birlikni) mushohada etmoqdir. “Bandam menga nafl ibodatlar bilan yaqinlashadi, oqibatda uni sevaman. Uni sevgach, uning eshitadigan qulog’i, ko’radigan ko’zi, gapiradigan tili va ushlaydigan qo’liga aylanaman. Men bilan eshitadi, men orqali ko’radi...” mazmunidagi qudsiy hadisda “xilvat dar anjuman” qoidasi ilgari surilgan. SHu jihati bilan bu qoida o’rta darajali so’fiylarning emas, tasavvufiy tarbiyasi nihoyasiga yetganlarning maqomidir. Xalq orasida Haq bilan birga bo’lish, ya’ni so’fiyning dunyoviy ish bilan mashg’ul bo’lishiga qaramay, el qatori bir inson sifatida yashashi, shu orqali ma’naviy holini atrofida gilardan maxfiy tutishini bildiruvchi bu qoida naqshbandiya tariqatining shioridir.

v) ma’naviy holni yashirish, riyo bo’lmasligi uchun karomatni izhor etmaslik. Naqshbandiylar riyo va shuhratdan qochganlari bois karomatni sir tutishga alohida ahamiyat berganlar. Bahouddin Naqshbandning aynan shu holatni ifodalashga qaratilgan quyidagi bayti uning suhbatlarida o’qilgan ekan:

Az darun shav oshino vaz berun begonavash,

In chunin zebo ravish kam mebuva andar jahon.

(Botinda Haqqa oshno bo’l, zohirda esa begonadek ko’rin. Bunday go’zal bir usul jahonda kam topiladi).

g) raqsu samo’ va jahriy zikrdan qochmoqlik. Ma’naviy hollarini izhor aylashdan saqlangan naqshbandiylar ko’pincha raqsu samo’ (zikrni raqsu musiqa bilan bajarish) va baland ovoz bilan zikr qilishdan uzoq bo’lishni ixtiyor etganlar. Bahouddin Naqshband hazratlari: “Samo’ni inkor etmaymiz, unda qatnashmaymiz ham” deganlar. Xoja Bahouddin Naqshband samo’ qilmagan va muridlarini ham samo’ majlisida o’tirishdan qaytargan.

Abdulxoliq G’ijduvoni shogirdlariga: “Samo’ majlislarida ko’p o’tirma, zero nifoq hosil bo’lib, samo’ning ortig’i dilni o’ldiradi. Lekin samo’ni inkor etma, samo’ qiluvchilar ko’p. Samo’ faqat qalbi tirik va nafs o’lik kishigagina joiz. Bunday holga erishmagan kimsaga samo’ halol va muboh emas”.

Xojagon va naqshbandiya shayxlari asosan maxfiy zikrga rioya qilib kelganlar. Zero, Abdulxoliq G’ijduvoni Xizr alayhissalomning tavsiyasi bilan hovuzda, suv ostida zikri xafiy boshlab bergan.

d) xizmat ahli, fidokor va jo’mard bo’lmoq. Naqshbandiylik futuvvat tushunchasi ta’siri ostida shakllangani bois fidokorlik va xizmatga alohida ahamiyat beradi. Naqshbandiylar xalqqa xizmat qilishadi, lekin o’zlariga xizmat qilinishini istamaydilar. Ular insonlardan yordam

so'ramaydilar. Hamdun Qassor: "Yaratilmishning yaratilmishdan yordam so'rashi zindondagi kishining zindondagi kimsadan yordam so'rashi demakdir", – deydi. Xojagon-naqshbandiya vakillari ham xalqqa xizmat qilishga alohida ahamiyat berishgan, lekin o'zlari uchun iltifot ko'rsatilishini xohlamas edilar. Bu haqda Abdulkholiq G'ijduvoniyni: "Insonlardan biron narsa tama' qilma!" va "Javonmard, saxiy bo'l. Alloh taolo senga in'om etgan ne'matlardan xalqqa ehson qil!" kabi tavsiyalari namuna bo'la oladi. SHuningdek, "Rashahot" muallifining otasi, naqshbandiylardan Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" nomli maxsus asar yozganligi xojagon ta'limotida futuvvat nash'asiga nechog'li e'tibor berilishining qat'iy bir dalilidir.

Abdulkholiq G'ijduvoni vasiyatlarida: "Mashoyixga badaning bilan jismonan xizmat qil!", – deydi. Bahouddin Naqshband ham ustoz Amir Kulol xonaqohida yelkasida o'tin tashigan. Xoja Ali Romitaniyning "Do'stimning kelishiga vosita bo'lgan bu hayvondir" deya do'stidan oldin uning ulovini yedirib-ichirgan. Bahouddin Naqshbandning uyiga ziyoratchi yo mehmon kelsa, izzat-ikrom ko'rsatardi. Bir safar betob bo'lib qolganida, Buxorodan muridlari kelishgan. Bemorligiga qaramay, mehmonlarni tabassum bilan kutib olgan, hatto mehmonlar uchun muridlari bilan bozordan qo'y olib kelishayotganida hazrat Naqshband qo'yni yelkasida ko'tarib kelgan ekan. Bular xojagon-naqshbandiya shayxlarining xalqqa xizmat qilishga ko'rsatgan ahamiyatlaridan dalolat beradi.

e) halol mehnat bilan tirikchilik qilish. "Bir mo'minning halol mehnat qilmasligi tilanchilikda ilgarilashi demakdir", – degan Hamdun Qassor Naqshbandiylar mehnat qilib kun kechirishgan va topganlarini faqirlarga ehson qilishga ahamiyat berganlar.

Xojagon-naqshbandiya shayxlari ishsiz insonlarni shogirdlikka qabul qilmaganlar, o'zlari albatta biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganlar. Xoja Ali Romitaniy to'qimachi, Muhammad Bobo Samosiy bog'bon, Amir Kulol kulol, Bahouddin Naqshband naqqosh – to'qimachi va chorvador, Amir Kulolning o'g'li Amir Hamza ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror chorvador va savdogar bo'lishgan. Bahouddin Naqshband tavakkul holi halol mehnat qilish bilan birga bo'lmog'i lozim degan edi. Bahouddin Naqshbandning uvaysiy piri Hakim Termiziy (vaf. 320/932 y.) ham mehnat bilan kun kechirishga ahamiyat bergan mutasavviflardan bo'lib, bu mavzuda hatto "Bayon ul-kasb" nomli asar bitgan ekan.

Muhammad Porso xojagon-naqshbandiya tariqati Boyazid Bistomiy, Salmoni Forsiy va Abu Bakr Siddiq vositasida hazrat payg'ambarga tutashishi, bu uch zotning ham mehnat ahlining buyuklaridan bo'lganligini ifodalaydi. Xoja Ubaydulloh Ahrorning shogirdlaridan Abdulloh Ilohiy (vaf. 896/1491 y.) bunday deydi: "Naqshbandiylar toifasining maqomi jami maqomotdan balanddir... Sunnati muakkada va farzlarni cho'zmaydilar. Ortiqcha amallardan ko'p umid qilmaydilar, balki Haq taoloning fazlidan umidvorlar" Bahouddin Naqshbandning: "Biz Allohning lutfiga bog'langanlarmiz" va "Bizni lutf eshigidan kirgazdilar. Vazifamiz farz, vojib va sunnati muakkadalarni ado etmoqdir" kabi so'zlari bir-biriga muvofiqdir.

Bahouddin Muhammad Naqshband 71 yoshida 1389 yili o'z muborak maskanlari Qasri Hinduvon (keyinchalik bu yer Qasri Orifon deb atalgan)da olamdan o'tganlar. Qabrlari shu yerda. Ul zot tarbiyasida bemisl xizmatlari singgan onalarining qabri ham shu yerda.

Bahouddin Naqshband – valiy inson, ulug' ruhoni murabbiy, ko'pdan-ko'p pokiza xislatli odamlarni tarbiyalagan, yangi silsilani vujudga keltirgan zot. SHunga qaramay, nihoyatda kamtarona hayot kechirgan, taqvo, halollik, haqgo'ylik, adolatxohlikda namuna bo'lganlar. O'zlariga tegishli yerda dehqonchilik qilib, ba'zan ota kasb – kimxobga naqsh solib, luqmai halol bilan ro'zg'or o'tkazgan. "Bitta sigirimiz bor edi, deb eslaydi u kishi - o'zim boqardim va o'zim sog'ar edim" ("Maqomoti SHohi Naqshband" kitobi, 14-b.).

Bahouddin Naqshband nazru niyoz qabul qilmaganlar, aksincha, o'z ro'zg'orlaridan ortib qolsa, boshqa muhtojlarga berganlar. Qasri Orifon o'ziga xos xonaqohga aylanib, Bahouddin Naqshband shu yerda murid tarbiyalash bilan shug'ullanganlar. U kishi atrofiga qalbi toza, ilohiy ilmlarni puxta egallagan, ma'rifat nuriga tashna odamlar yig'ilgan bo'lib, ilohiy haqiqatlarni kashf etish uchun suhbatlashardilar.

Suhbatning foydasi ko'p, deydi Bahouddin Naqshband, chunki suhbat orqali inson qalbiga kirib borish mumkin. Boshqa tariqatlardagi chilla o'tirish, zikri jahriya (baland ovozda zikr aytish)ni Bahouddin hazratlari xush ko'rmaganlar. Chunki chilla o'tirish, xilvatnashlik – odamlardan uzoqlashish, o'zini ko'z-ko'z qilish va vasvasaga berilishdir. Suhbat naqshbandiyaning bosh shiori – “xilvat dar anjuman” (odamlar ichra xilvatda bo'lish)ga mos edi. Zero hunar bilan, kasb bilan shug'ullanib yoki biror ish bilan band bo'lib ham, Alloh yodini dilda saqlash, bandalikni bir nafas unutmashlik, hamma vaqt, hamma yerda, istagan sharoitda o'zini ogoh deb bilish, qalbda Alloh nomlarini naqshlash ulug' fazilatdir.

“Dast ba koru dil ba Yor” shiori ham aynan shuni taqozo etar edi. Qo'ling ishda, qalbingda Allohda bo'lsin,. Ya'ni: dunyoni ham, oxiratni ham, unutmash. Xuddi shu ma'noda xojagon tariqatining boshqa qoidalar, chunonchi: “safar dar vatan”, “hush dar dam”, “nazar dar qadam” kabi qudsiy talablar botinni poklash, botinan Allohni sevish va shariat yo'lidan cheklanmaslikni chuqurroq anglash, mustahkamlashga yordam berib kelgan.

Bahouddin Naqshband hazratlari birinchi navbatda amaliy ishlar bilan shug'ullangan murabbiy shayx bo'lgan. Ammo ul zotning xojagon tariqati qoidalarini nazariy jihatdan boyitgan fikr-mulohazalari ham ko'p. Bu haqda manbalarda ma'lumotlar ancha. Bahouddin Naqshband “Hayotnoma”, “Dalil ul-oshiqin”, “Avrod” nomli asarlar yozib qoldirganlar. Biroq bu asarlarning taqdiri hozirgacha bizlarga noma'lum. Faqatgina ul zotning “Al-Avrod” nomli mashhur asarlariga Ali ibn Ahmad al-G'uriy yozgan sharh - “SHarhi avrod” asari mavjud. Bahouddin Naqshband hazratlari aytgan so'zlar aksar manqib va tazkiralarda uchraydi.

Agar bu so'zlarni jamlab o'rgansak, naqshbandiya tariqatiga oid quyidagi qoidalar kelib chiqadi:

1. Payg'ambar sunnati, shariat ahkomlaridan chetga chiqmaslik. SHu ma'noda zikri jahriya emas, zikri xufiyani ixtiyor etish (“Mo in kor namekunem, ammo inkor ham namekunem”).
2. Tarbiyada botinni poklash va ruhoniylar kamolotga asosiy e'tiborni qaratish. SHu ma'noda xilvatnashlik, uzlatni tark etib, jamiyat ichida bo'lib, Allohni dilda saqlash, zikrni qalb bilan ado etishga erishish.
3. SHundan kelib chiqib, orifona suhbatlar, muroqaba kabi usullardan keng foydalanish. SHogirdlarning ixlosini sinab ko'rish.
4. So'fiy o'z-o'zini nazorat qilib borishi, kirib-chiqayotgan nafasi, faoliyati, umri nimaga sarflanayotganini hisoblab, o'zini ogohlik bilan rostlab borishi darkor. Botinga safar qilish orqali nafsni tarbiyalash, insoniylar xislatlarini ko'paytirib borishga erishish.
5. Faqrlar va tavoze'ni o'z axloq qoidasiga aylantirish. Faqrlar - gadolik yoki o'ta qashshoqlik emas, balki molu davlatga ega bo'lsa ham, o'zini Xudo talabgori, bu dunyoda hech narsaga ega emas deb bilish. Xokorlikning namunasini ko'rsatish. Faqrlarlikning birinchi sharti nafsni badnom etish va har lahzada “tabiiy vujudni kafolatlab turish”dir. Faqrlarlik, shu ma'noda ham axloqiy sifat, ham martaba va maqomdir. Faqr maqomiga yetish uchun “jism fano shu'lasiga yashiringan” (Alisher Navoiy) bo'lishi, qalb Alloh ishq va jazbasi bilan to'lib-toshishi lozim.

Kishi xush xulqi, pokiza sifatleri bilan fazlu kamolot va kashfu karomat sohibiga aylanadi. So'fiy mol-mulki bor-yo'qligiga qaramay, Alloh nazdida faqir va haqirdir. Ham shu bois buyukdir, azizdir, sevimlidir.

6. SHu aqidadan kelib chiqib, naqshbandiylar taxtda o'tirib ham, mansab-amal egasi bo'lib ham darvesh bo'lish mumkin, deydilar. Jumladan, Husayn Boyqaro Jomiy va Navoiy nazarida "ham shoh, ham darvesh", ya'ni qalban darvesh odamdir.

Hazrat Bahouddin Naqshbandning qarashlarini ifodalovchi hikmatli so'zlaridan yana ba'zi misollar keltiramiz.

1. "O'z nafslaringizni yomonlab, tahqir etib turing, chunki kimki Haq subhonahu va taolo inoyati birla o'z nafsini yomon deb tanigan bo'lsa, bu amal uning uchun osondir".

2. Imon - qalbni Allohdan boshqa o'ziga rom etuvchi foydali va foydasiz narsalardan uzib, Haqqa bog'lashdir.

3. "Anjumanda xilvat – "zohir yuzidan xalq bilan va botin tarafidin Haq subhanohu taolo bilan bo'lmoqdir".

4. "Bandalik xojalik bila to'g'ri kelmas, biz qul va xizmatkor tutmadik".

5. "Elning yukini yengillashtiring, elga yuk bo'lmang".

Bahouddin Naqshband tariqati osoyishta va chin ma'nodagi ma'rifiy tariqatdir. Tafakkur va taxayyul mevalaridan bahramandlik, badiiy ijod namunalaridan foydalanishga keng yo'l berilgan. Bexudlik, g'uluvga ketish, qavmni tahliliga solish, avom anglamaydigan harakatlar qilish man' qilingan.

Naqshband hazratlari muloyim-tabiati, rahmdil odam bo'lganlar va shunday odamlarni yaxshi ko'rganlar. U zotning o'gitlaridan: "Dilozordan Xudo bezor, barcha mo'minlarga, hatto kofirlarga ham rahmdil bo'ling, chumoliga ham ozor bermang" Ustozlari hazrat Sayyid Amir Kulolning mana bu so'zini takrorlab yurardilar:

Mayozor mo'ru mayozor kas,

Rahi rastakori hamin astu bas.

(CHumoliga ham, odamga ham ozor berma, najot yo'li shudir).

Bahouddin Naqshband ta'limoti katta ijtimoiy ta'sirga ega edi. "Xudo oldida barcha barobar, shohu gado deb ajratish bo'lmas", der edilar. Bu:

a) turli ijtimoiy tabaqalar;

b) turli millat va qavmlarni birlashtirishga qaratilgan bo'lib, ayirmachilik va siyosiy to'qnashuvlarning oldini olishga yordam bergan.

Naqshband butun umr ilm istab, ilm o'rganish, jahldan uzoq turishni nasihat qildilar. U kishi Payg'ambarning "Qaerda bo'lmang, ilm talabidan uzoqlashmanglar va agar obu otash ichra g'arq bo'lsangiz ham, g'avvos bo'lib kechib o'tinglar va ilm o'rganinglar", degan hadisini muridlariga takror-takror uqtirib turganlar.

U kishining muridlari hammasi muayyan kasb egasi bo'lgan, kasb bilan halol luqma topib yeyish talab qilingan. Kamtarinlik ulug'lanib, turli kiyimlar kiyib o'zini ko'z-ko'z qilish, so'fiyman deb iddao qilish, kerilish katta nuqson deb qaralgan.

Mana shu jihatlari bilan ham naqshbandiya ta'limoti obro'-e'tibor qozongan. Butun harakat-faoliyat, o'git-nasihatlar, toat-ibodat ham insoniylik jabhalarini kashf etishga qaratilgan. Insoniylik javhari esa ilohiy axloq va islomiy iymon mustahkamligini ta'minlash orqali qo'lga kiritiladi.

SHo'rolar zamonida hazrat Bahouddin Naqshband ta'limotiga e'tibor qilinmadi, ul zotning maqbarasi, Qasri orifon majmui tashlandiq holda qoldi. Istiqolning dastlabki yillaridan boshlab, Yurtboshimiz tashabbuslari bilan bu majmua ta'mirlab, obod qilindi. 1993 yilda Naqshband hazratlari 675 yilligi jahon miqyosida nishonlandi. Prezidentimiz shaxsan o'zlari Naqshband qadamjoylarini obod qilish ishlarini ko'zdan kechirish uchun Buxoroga uch marta tashrif buyurdilar. Bu joy hozir Qubbat ul-islom nomi bilan mashhur bo'lgan Buxoroi sharifning eng ko'rkam joylaridan biriga aylandi. Bu yerga dunyoning turli go'shalaridan sayyohlar kelib, ziyorat qilmoqdalar.

I.A.Karimov o'z nutqlaridan birida deganlar:

“Buxoroni Buxoroi sharif darajasiga ko'targan ana shunday ajdodlarimiz orasida hazrat Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida nufuz va mavqega ega. Bu ulug' shaxs timsolida inson ruhiyatining naqadar teranligi, bu dunyoda o'z irodasini tarbiyalab, qalbini poklab, nafs balosini yengib yashaydigan odam qanday ma'naviy yuksaklikka qo'tarila olishi yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu buyuk zot... ma'rifat yo'lida odamlarning qalbiga chuqur kirib borish orqali ularda ezgu intilishlar, orzu-umidlar uyg'otish mumkinligini... isbotlab berdi”. SHu bois naqshbandiya ta'limoti hozir ham qiziqish bilan o'rganilmoqda, manbalar nashr ettirilmoqda. Bu ta'limot istiqolga erishgan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilaveradi.

Buxoroyi sharifda barpo etilgan xojagon-naqshbandiya tariqati ham o'sha davrda ilm va ma'rifat markazi hisoblangan bu o'lkaning madaniy turmush tarziga uyg'un tarzda shakllandi.

II.BOB.Mustaqillik yillarida tasavvuf tariqati asoschilari qadriyatlarining tiklanishi

2.1. Movarounnahr-qadim tasavvuf beshigi

Qadim yurtimiz Movarounnahr azal-azaldan ilm-fan yuksak taraqqiyga erishgan, dinu diyonat yuksak darajada ulug'langan mo''tabar maskan sifatida e'zoz va ehtiromga sazovor bo'lib kelgan. Ayniqsa, o'lkamiz bo'ylab islom dinining keng tarqalishi fan tarmoqlarining ortishiga, jumladan, fiqh, hadis, tasavvuf singari imon va adolat xizmatiga kamarbasta bo'lgan ilmlarning maydonga chiqishiga zamin yaratdi. Bu jihatdan SHosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi ilmu irfon maskanlarida yashab faoliyat ko'rsatgan buyuk bobokalonlarimiz nomi alohida e'tirofga munosibdir. Jumladan, sharqshunos olimlarimiz o'rinli ta'kidlashganidek, “Islom din sifatida Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan bo'lsa-da, o'zining takomil bosqichidagi yuksak darajaga Buxoroyi sharifda yetdi”. Yurtimizni ana shu oliy martabalarga erishtirishda biz quyida nomlarini zikr etishni maqsad qilgan fozil vatandoshlarimizning beqiyos xizmatlari bor.

Abu Hafc Kabir Buxoriy (767-832). Ilmiy salohiyati, iqtidor va g'ayratini Islom huquqshunosligi (fiqh), hadis ilmi va tafsir (Qur'on sharhi) yo'liga safarbar etgan ulug' shayx. Abu Hafc Buxoriyning bu xizmatlari o'z davrida munosib baholanib, u kishini "Hazrati Imom" deya sharaflash odat tusiga kirgan edi. SHuningdek, elimiz bu ulug' shayxni ilmiy-amaliy faoliyatdagi e'tiqodu ixlosi bois "xoja", "shayx", "al-imom", "al-olim", "al-omil" unvonlari ila sharaflashni burch bilgan. Bu ulug' zotning arab va ajamdagi shuhrati beqiyos edi. Buxoroning sharif shahar maqomini olishi shu kishi tufaylidir. Xojaning qabri Buxorodagi obod ziyoratgohlardan biridir.

Abu Bakr Kalobodiy. "Darboni Buxoro" ("Buxoro darvozaboni"), "Toj ul-islom" ("Islom toji") kabi yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan buxorolik buyuk muhaddis va mutasavvif, hanafiy mazhabidagi fiqh va usul ul-fiqh ilmlarida zabardast alloma Abu Bakr Muhammad ibn Ya'qub ibn Abu Ishoq al-Kalobodiy al-Buxoriy (991 yilda vafot etgan) Movarounnahr tasavvuf maktabining asoschilaridan biridir. U hali Movarounnahr zaminiga Xoja Yusuf Hamadoni ta'limoti kirib kelmasdan ilgari, islomiy tasavvuf paydo bo'lishi avvalida irfoniy aqidalar mo'jaz va ixcham usulda bayon etilgan "At-ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf" ("Tasavvuf yo'lini tanishtirish") nomli kitobini yaratgan. Xojaning qabri Buxorodagi Kalobod mavzesida bo'lgan. Sobiq sho'ro davrida mozar buzilib, uning o'rnida savdo texnikumi qurilgan. 2006 yilda ulug'larimiz ruhini shod etish maqsadida bu yerda "Daxmai Behishtiyon" ("Jannatiy zotlar daxmasi") tiklandi.

Mustamliy Buxoriy. "Imomlar xojasi", "Zohidlar sarvari", "Donishmand faqih" unvonlari bilan mashhur bo'lgan buxorolik buyuk mutafakkir Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Mustamliy al-Buxoriy (1043 yilda vafot etgan)ning "SHarh at-ta'arruf li-mazhab at-tasavvuf" ("Tasavvuf yo'lini tanishtirishning sharhi") kitobi fors tilidagi tasavvuf ilmiga oid fundamental manbalarning eng qadimiysi va bizning zamonimizgacha saqlab qolingani eng qadimgi qo'lyozma namunalaridan biri hisoblanadi. Mazkur durdona asar tasavvuf ilmida qadimiy va mo'tabar hisoblanadigan Abu Bakr Kalobodiyning "At-Ta'arruf" asariga yozilgan ilk forsiy sharhdir. Daxmai Behishtiyondagi marmar lavhda bu ulug' zotning ham nomlari zikr etilgan.

Xoja Abdulloh Barraqiy. Yusuf Hamadoniyni birinchi shogirdi. Asli Xorazm viloyatidandir. SHayx Abdulkarim Sam'oniyni "Al-Ansob" kitobida aytilishicha, Baraqiyni laqabi "barra" so'zidan olgan.

"Rashahot" muallifi Faxruddin Ali Safiy Baraqiyni qabri haqida quyidagi ma'lumoti e'tiborlidir: "Qabri muboraklari Buxoroda SHo'riston tallida (mazorida). SHayx Ishoq Kalobodiy rahmatullohi ta'oloning mazarlarining yaqinida turur..." Demak, bu manzil hozirgi Daxmai Behishtiyon hududiga to'g'ri keladi.

Xoja Hasan Andaqiy. Bu ulug' zotning to'la ismi sharifi Abu Muhammad ibn Husayn al-Andaqiy bo'lib, 1069 yilda SHofirkon tumanidagi Andaq qishlog'ida dunyoga kelgan. Xojagon-naqshbandiya tariqatining sarchashmasida turgan Yusuf Hamadoniyni ikkinchi xalifasi sifatida shuhrat qozongan. Abdulkarim al-Sam'oni "Birinchi marta u kishini Marvda "SHayx" xonaqohida, keyinchalik Buxoroda ko'rgan"ligini qayd etarkan, o'zi ham ul "zotdan ko'p rivoyat yozib olgan"ligini, qolaversa, undan "shayx Yusuf al-Hamadoni rivoyat qilgan hadislardan ta'lim olgan"ligini mamnuniyat bilan qayd etadi. Xoja Hasan Andaqiy 1158 yilda Buxoro shahrida vafot etgan va Kalobod (Gulobod) darvozasi tashqarisidagi shayx Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq Kalobodiy (hozirgi Daxmai Behishtiyon) maqbarasida dafn etilgan.

Xoja Ahmad Yassaviy. Hozirgi Turkiston, oldingi Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tavallud topgan "Sulton ul-orifin" Xoja Ahmad Yassaviy (1105-1166) xojagon tariqati sardori

Xoja Yusuf Hamadoniyning uchinchi xalifasidir. Xoja Ahmad Yassaviy o'z tasavvufiy qarashlarini hikmatlar vositasida ham bayon etganlar. "Dunyo uchun g'am yema, Haqdin o'zgani dema, Kishi molini yema..." nasihat qiladilar shayx hikmatlaridan birida. Yassaviya g'oyalari va hikmatnavislik an'anasi keyinchalik Sulaymon Boqirg'oniy (Hakim ota, vaf. 1192) tomonidan munosib davom ettirildi.

SHayx Najmiddin Kubro. Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy (1145-1221) o'z zamonasining ilm va tasavvuf ahli orasida "Najmiddin" ("Dinning yulduzi"), "Kubro" ("Ulug'"), "Valiytarosh" ("Valiylarni tarbiyalovchi") unvonlari bilan mashhur bo'lgan. Najmiddin Kubro asos solgan javonmardlik tariqatining keng yoyilishida uning islomiy ahkomlarga g'oyat uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etdi. SHayx-shoirning o'z qarashlarini ruboiylar vositasida bayon etganligi uning siymosiga nafaqat tariqat peshvosi, balki iste'dodli shoir sifatida ham alohida diqqat qaratishni taqozo etadi.

SHayx Sayfiddin Boxarziy. Musulmon SHarqida SHayx ul-olam – Olamning shayxi nomi bilan dong taratgan kubraviya tariqati namoyandasi, ulug' avliyo, nuqtadon olim, hassos shoir va yetuk voiz Sayfiddin Boxarziy hijriy 586 yil sha'bon oyining 9-kunida – milodiy 1190 yil 8 sentyabrda Xurosonning Boxarz degan joyida tug'ilgan. Sayf ul-Haq vad-din Abulmaoniy Sayyid ibn ul-Mutahhar ibn Sayyid al-Boxarziy, shuningdek, shayx ul-islom va al-muslimin, voris ul-anbiyo va mursalin, sultoni mashoyixi al-sharq va al-CHin nisbalari bilan mashhur. Najmiddin Kubro qo'lidan shayxlik xirqasini kiyib, uning xalifasi sifatida keyinchalik kubraviya tariqatini rivojlantirgan. Hijriy 659 yil zulqa'da oyining 24-kunida – milodiy 1261 yil 20 oktyabrda Buxoroda vafot etgan va Fathobod mavzesida dafn qilingan. Buxoro shahrida joylashgan bu maskan hozirda obod ziyoratgohdir.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy. Ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiy shoh asarlari yaratilganidan beri o'tgan yuz yilliklar muxlis va mutaxassislarni bu sirli-sehrli olam bag'riga chorlashdan bir soniya bo'lsin, to'xtagani yo'q. Ijtimoiy-maishiy hayotimizning qay bir jabhasi, axloqiy-ma'naviy dunyomizning qay bir muammosi bo'lmasin, bu betakror adab namoyandasi siymosiga ro'baro' bo'laveramiz. Inchunin, naqshbandiya tariqati tarixi va axloqiy-ma'rifiy ahamiyati haqida so'z ketganda ham. Xojagon-naqshbandiyaning axloqiy komillikka da'vat etuvchi to'rt asosiy qoidasini muxtasar qaydlarda umumlashtirgan va "Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband" deya o'z oldiga muqaddas vazifa qo'ygan shoir shaxsiyati u yaratgan qahramonlar siymosida, dunyoqarashi va o'y-fikrlarida tajassum topganligiga takror-takror guvoh bo'lish mumkin. Demak, hazrat Navoiy haqida so'z aytmoq, shaksiz, naqshbandiya suluki xususida so'z ochmoq bilan barobardir.

2.2. Tasavvuf tariqati asoschilari qadriyatlarining tiklanishi

Mashhur tasavvuf shayxlaridan biri, kubroviylik tariqati asoschisi Najmiddin Kubro shaxsiyati va faoliyatiga O'rta Osiyo xalqlari qadimdan katta qiziqish bilan qaragan. Uning hayoti, karomatlari haqida el orasida ko'plab rivoyatlar bor. Muhammad Doroshukuhning "Safinatul avliyo", Rizoqulixon Hidoyatning "Riyoziy orifin", Mavlaviy G'ulom Sarvar Sohib Lohuriyning "Xazinatul asfiyo", Abdurahmon Jomiyning "Nafahotul uns" kitoblarida Najmiddin Kubroning hayoti, so'fiylik tariqati va faoliyatiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Najmiddin Kubro 1145 (540 hijriy) yili Xiva shahrida dunyoga keldi. Asl oti Ahmad ibn Umar Muhammad Xivaqiy Xorazmiy bo'lib, ismiga "Najmiddin", "Abuljannob", "Valiytarosh" kabi unvon va kunyalar ham qo'shib aytilgan.

Abdurahmon Jomiyning "Nafahotul uns" asarida qayd etilishicha, Ahmad yoshligidan ilmga qiziquvchanligi va qobiliyati bilan ajralib turgan. U Islom asoslari, shariat ilmlarini juda

tez o'zlashtirib, Xorazmning o'sha paytdagi ulamolaridan ancha ilgari ketadi va "Najmiddin" – "Din yulduzi" degan nom oladi. SHundan keyin Ahmad ibn Umar Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo'lib ketadi.

Ali Akbar Dehxudo u kishining Kubro deb atalishiga behad ziyrakligi va o'tkir zakovati, har qanday muammoli masalaga yechim topib berishi sabab bo'lganini qayd etadi.

"Abuljannob" so'zi esa Najmiddin Kubroning kunyasidir, bu so'z "Dunyodan o'zini saqlagan taqvodor" degan ma'noni beradi. Jomiyning yozishicha, Najmiddin Kubro Iskandariya shahrida muhaddis ulamolardan hadis ilmini o'rganib qaytayotganida yo'lda bir kecha Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) tush ko'radi va "Menga kunya bag'ishlang", deb so'raydi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) Najmiddinga: "Sening kunyang Abuljannob bo'lsin", deydi. Najmiddin shu bashoratdan keyin tasavvuf yo'liga kiradi va munosib piri murshid qidirishga kirishadi

Najmiddin Kubro o'n olti-o'n yetti yoshida ilm izlab Misrga boradi. Misrda Ro'zbehon Vazzon Misriydan (milodiy 1189/584 hijriy yili dunyodan ko'z yumgan) ta'lim oladi. SHayx Ro'zbehon mashhur mutasavvif Abu Najib Suhravardiy qo'lida tarbiya topgan edi. U Najmiddin Kubroni o'z o'g'liday yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan tarbiyalaydi. Keyinchalik qizini shogirdiga nikohlab beradi va o'ziga kuyov qiladi.

Ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib, Imom Abu Mansur Hafda degan donishmanddan Islom ilmlarini o'rganadi. U yerda SHayx Bobo Faraj, Ammor Yosir, Ismoil Qasriy kabi mutasavvif olimlardan tasavvufga oid zohiriy va botiniy ilmlar bo'yicha saboq oladi. SHayx Ismoil Qasriy qo'lida komillik darajasiga yetib, ustozining oq fotihasini oladi. Yigirma besh yildan ortiq umrini ilmga bag'ishlagan Najmiddin Kubro 1185 yili Misrdagi ustoz va qaynotasi Ro'zbehon maslahati bilan o'z vatani – Xorazmga qaytib kelib, xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Xorazmda kubroviylik tariqatiga asos soladi. Ushbu tariqat soliklari orasida zikrni xufiya (ovoz chiqarmasdan) aytish usuli joriy bo'lgan.

Najmiddin buyuk so'fiy shayx bo'lib yetishishida uch buyuk inson – SHayx Ro'zbehon Misriy, SHayx Ammor Yosir va Ismoil Qasriylarning xizmati katta bo'lgan.

"Valiytarosh" laqabi esa, valiylarni tarbiyalovchi deganidir. Najmiddin Kubro umri davomida o'n ikki kishini muridlikka qabul qilgan bo'lib, ularning barchasi shayx darajasiga yetishgan. Ular orasida mashhur shayxlardan Fariduddin Attorning otasi Majiduddin Bag'dodiy (1219 yili dunyodan o'tgan) va Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad (1152–1231), Najmiddin Doya Roziy (1255 yili dunyodan o'tgan), Sa'duddin Hamaviy (1252 yili dunyodan o'tgan), Sayfuddin Boharziylar (1259 yili dunyodan o'tgan) bor.

Najmiddin Kubro bir qancha asarlar yozgan. Ularning ko'pi arab tilida bitilgan. Jumladan, "Favoih al-jamol va favotih al-jalol" (Jamol xushbo'yliklari va jalol kashfi), "Al-usul al-ashara" (O'n usul), "Risola at-turuq" (Tariqatlar risolasi), "Risalat al-xoif al-hoim min lavm al-loim" (Malomatchining malomatidan hazar qiluvchi haqida risola) va boshqalar. SHayxning fors tilida yozilgan "Fi odob us-solikin" ("Soliklar odobi haqida") risolasi ham bor. Forscha ruboiylarida javonmardlik, pok axloq g'oyalari ifodalangan.

Najmiddin Kubro kishilarni ezgulikka, ilmga, saxovat va mardlikka da'vat etdi. Bu yo'lda o'zi boshqalarga o'rnak bo'ldi. 1221 yili mo'g'ul bosqinchilari yurtga bostirib kelganida, garchi unga shaharni tashlab chiqish imkoni berilsa-da, Vatanini dushman qo'lga topshirmadi.

Mo'g'ullar bilan jangda mardonavor kurashib, jon fido qildi. SHayxning qabri Ko'hna Urganchda. Buyuk bobolarimizning hayot yo'li biz avlodlar uchun go'zal o'rnakdir.

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir. Abul-Jannob va Tomatul Kubro laqablariga sazovor bo'lgan tasavvufning Kubraviya silsilasining asoschisi Najmiddin Kubroning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiydir. Hijriy oltinchi va yettinchi asrlarda yashagan Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va Bahouddin Valad kabi siymolar u kishining murid va shogirdlari bo'lgan. Axmad ibn Umar Abul-Jannob Najmiddin Kubro 540 hijriy yidda Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga keladi.

Abdurahmon Jomiy o'zining «Nafahot-ul-uns» asarida yozishi-cha, Najmiddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo'ladi. Misrda Ruzbehon Vazzon al-Misriy (vafoti 584/1188) degan olim dargohida ta'lim oladi. Al-Misriy esa, o'z navbatida, mash-hur mutasavvuf donishmand Abu Najib as-Suxravardiydan ta'lim olgan edi. Ruzbehon uni o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan tarbiya qiladi, hatto qizini nikohlab berib, o'ziga kuyov qilib oladi.

Ammo ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur IIIfda degan donishmanddan islomiy ilmlarni o'rganadi va Tabrizda shayx Bobo faraj, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvuf donishmandlardan tasavvufga oid ko'pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham egallaydi. U kishi shayx Ismoil Kasriy qo'lida tasavvufiy xirqapush darajasiga yetib, ul hazratning oq fotihasini oladi. So'ngra Misrdagi ustoz va qaynatasi Ruzbehon maslahati bilan o'z vatani — Xorazmga qaytib kelib xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi, «Kubraviya» yoki «Zahobiya» tariqatiga asos soladi. Bu tariqat ta'limoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib, o'z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliklari orasida zikrni ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro qilish usuli joriy bo'lgan.

«Rashahot ayn-ul-hayot» asarining muallifi Faxruddin as-Safiy o'z asarida hazrati Abdurahmon Jomiy fikrlariga tayangan holda Najmiddin Kubroning zikri xufiya talqini to'g'risida so'z yuritadi va shayx Kubro fikricha, zikr jarayoni insonlarning nafas olish (tanaffus) jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqida shunday ma'lumot beradi: «Hazrat Mahdumi Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy aytishlaricha, shayx Abul-Jannob Najm al-Kubro qudsi Allohi ruhi o'zining «Favotix al-jamol» risolasida yozganlaridek, hayvonlarning nafas olishi bir tabiiy zaruriyat tufayli yuz beradi. Insonlar ham aslida ayni o'sha zaruriyat yuzasidan nafas oladilar, lekin o'shanday nafas olish jarayonida inson g'oyibona haqqu subhonahuning muborak nomini zikr qiladi.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur «Lug'atnoma»sida keltirilishi-cha, «u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tuganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g'olib chiqar edilar».

SHuningdek, u kishini Tomatul Kubro, ya'ni buyuk balo va qazolarning oldini oluvchi, xaloskor deb ham atashgan. Abul-Jannob deb atalishlariga sabab esa, u kishining dunyoviy ikir-chikirlardan uzoqturganliklaridir. Ul zotni «Valitarosh» (valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi) deb ham atashgan. CHunki umrlari davomida o'n ikki kishini o'z muridliklariga qabul qilganlar va ularning barchasini shayx darajasiga yetkazganlar. Ular qatorida mashhur shayxlardan Farididdin Attorning otasi Majididdin Bag'dodiy (vafoti 1219) va Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad, Najmiddin Doya Roziy, Sa'diddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va boshqalar bor.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shid-datli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda Turon o'lkasidagi Xorazm, SHosh, Buxoro va Samarqand hukmdorlarining noahilligi, tang nazarliligi tufayli mo'g'ullarning Turkistonga qilayotgan

hamlari kuchayib, CHingizxon lashkarboshilari Movarounnahrda yirik shaharlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lgan. 1221 yilning jumodi ul-avval (iyul) oyida CHingizxon lashkarboshilaridan biri Xulaguxon o'zining yosh o'g'li, tumonat lashkari bilan Urganch qal'asini o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnodan munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'plab, qo'lida qurol bilan qal'ani bir necha kun davomida dushman hammlaridan saqlab turadi.

Najmiddin Kubro yuksak obro'ga ega bo'lsa ham, kamtarona hayot kechirgan. Ammo u kishining ba'zi muridlari mamlakat miqyosida shunchalik nufuzga ega bo'lganlarki, hatto Faxriddin Roziy kabi faylasuf va sulton Muhammad xorazmshoh ham ularning raqobatidan xavotirlanganlar. Masalan, «Sultonul ulamo» laqabiga ega bo'lgan Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad Balx shahrining uch yuzga yaqin faylasuf olimlari bilan bahs yurgizgan va ularni yunon falsafasi bilan ortiqcha shug'ullanishda ayblagan. Najmiddin Kubroning boshqa bir shogirdi, o'z navbatida shayx Fariddin Attorning murshidi bo'lgan xorazmlik Majiddin Bag'dodiy hokimiyatdagi ishlarni tanqid qilgani uchun qatl qilingan. Lekin uning minglab shogirdlari bo'lgan. Ba'zida sulton Muhammad xorazmshohning o'zi ham shayxlarning huzuriga kelib, ularni ziyorat qilib turgan.

Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Jangdan keyin, u kishining jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edi. Shahid bo'lganliklari haqidagi ma'lumotni hijriy 710 (1311) yilda yozilgan Rashiddiddin Fazlillohning «Jomeat ul-tavorix» («Tarixlar to'plami») asarida uchramiz.

CHingizxon shayx Najmiddin Kubroning mashhurliklarini eshitgan bo'lganligidan Xorazmga hujum qilish oldidan, u kishiga chopar yuborib, «Men Xorazmni qatliom qilmoqchiman, shuning uchun Sizdek ulug'vor shaxsni u yerdan ketib, bizga qo'shilishingizni so'rayman», degan. Ammo shayx unga javoban: «Men yetmish yil umrim davomida xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga tortganman. Endi ular boshiga balo-qazolar yog'ilyotgan paytda qochsam muruvvatdan bo'lmaydi», degan. Bu voqea hijriy 618 (1221) yilda ro'y bergan. Bu haqdagi ma'lumot «Tarixi guzida» («Tanlangan tarix»), Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns», keyinchalik esa, «Ravzat ul-safo», «Habib us-siyar» va boshqa mashhur tarixiy kitob va tazkiralarda ham uchraydi. Hijriy 733 (1334) yilda Xorazmga safar qilgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta Urganch shahridan chiqib berishdagi zoviyada Najmiddin Kubroning maqbarasi va boshqa ulug'larning mozorini ko'rganligini yozadi.

Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozgan-ki, ular juda ko'p tazkiralarda uchraydi. U o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiylari «Favoi' al-Jamol va faovti al-Jalol», «al-Usul al-ashara», «Risalat al-Xo'if al-xa'im min laumon al-la'im» va boshqalardir. Bu asarlar arab mamlakatlari va Turkiyada bosib chiqarilgan. Uning arab tilida yozgan «Risalatun odob ul-zokirin» («Zikr aytuvchilar odobi haqidagi risola») asarining Abdurahmon Jomiyning shogirdi Abdul g'ofur Loriy tomonidan fors tiliga qilingan tarjimai bizgacha yetib kelgan va Uzbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida № 503-X raqami ostida saqlanmoqda. Bu asarning asli nomi arabcha «Al-Usul al-ashara» («o'n usul» yoki «o'n asos») deb ataladi. Turkiyada ushbu asar turk tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Ma'lumki, Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasi ko'ra, inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokosm, ya'ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokosm, ya'ni katta dunyo bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo'lini qidiruvchilar bunday yuksakliklarga ko'tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo'lishi uchun, ya'ni kamolotlarga erishishi uchun, ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishlari zarur. Buning uchun esa, har bir kishi o'n asosga tayanmog'i kerak:

1. Tavba — o'z xohishi bilan Haq taolaga hech bir ko'rsatmasiz yuzlanishdir. Kishi o'z

irodasi bilan Xudoni sevishi va o'zining «meni» dan kechishi kerak. Tavba Xudo tomon yuz tutgan barcha kishilarning har qanday gunohlardan forig' bo'lishidir. Gunoh shunday narsadirki, u dunyoviy yoki ilohiy bosqichlardan tashkil topganiga qaramasdan Alloh taolodan yiroqlashtiradigan amaldir.

2. Zuhd fi-dunyo — bu dunyoda ham, uning tashqarisida ham, nima-iki lazzat tomon boshlasa, undan tiyilishdir. Oz yoki ko'p bo'lsa ham, biror molu mulkka, jangga yoki bo'lmasa biror mansabga o'z tabiiy vafotigacha rag'bat yoki moyillik ko'rsatish, zuhddan chiqish hisoblanadi.

Zuhdning mohiyati dunyo va oxiratga rag'bat qo'yishdan voz kechishdir. Ichki lazzat, sharob ichish, nikohiy ishlarga ruju qo'yish, mansab va oliy martabalarni qo'msash kabi rohatlarga o'xshash his-tuyg'ulardan voz kechishdir. Yillar davomida xayrli ishlar bilan band bo'lib, yer ishlari bilan shug'ullanish va shunga o'xshash boshqa fao-liyat ta'sirida dunyoviy narsalardan ko'ra, oxiratga ko'proq tamo-yil va rag'bat ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. CHunki dunyo foni bo'lib, oxirat boqiydir.

3. Tavakkal — Xudoga ishonch jihatidan bu turmushdagi barcha ikir-chikirlardan voz kechishdir. SHaxsning dunyoga rag'bat qo'yishi molu dunyo va mansab orttirish uchun tashabbus ko'rsatishga sabab bo'ladi. Tavakkal diddan Xudoga ishonish bo'lib, uning ulug'vorligini e'tirof etishdir. Maqsadga erishish mahalida tavakkal birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

4. Qanoat — hayot kechirishni ta'minlaydigan oz narsa bilangina qanoatlanish, o'z tarafiga tortadigan barcha nozu-ne'matlardan va hirslardan (ovqatni ko'p iste'mol qilish, qimmatbaho kiyimlarga havas qo'yish, o'yin-kulgi, bekorchilik va boshqalardan) yuz o'girish.

5. Uzlat — tanholikda o'tirib, ruhni mustahkamlash, odamlar bilan muomalani to'xtatish: gaplashmaslik, eshitmaslik, qaramaslik va turli fe'l-atvordan aloqani uzishdir. Uzlatning asl maqsadi xilvatda ado qilinganligi sababli his-tuyg'uni jilovlashdir. Xilvat va uzlatga ketish hissiyotlarning bosilishiga olib keladi.

6. Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr) — o'z xohishicha Xudoning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbni u bilan to'ldirish. SHunday qilinganda, pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik kabi razillik va riyokorliklar ko'ngilga yo'l topa olmaydi.

7. Tavajjuh — butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. O'z vujudini yo'qotish, Haqning abadiy va azaliy vujudini boshqa bilim ila ko'ra bilishdir.

8. Sabr — o'z ixtiyori bilan nafs doirasidan mashaqqatlar chekib bo'lsa ham, o'zini olib qochishdir. Maqbul bo'lgan to'g'ri yo'ldan adash-masdan borish uchun, kishi o'z mayllarini so'ndirishi lozim. Bundan ko'zlangan maqsad shundaki, dil kuduratlardan poklanishi, ruh esa, agar nafs natijasida zanglanib qolgan bo'lsa, jilo topishi za-rurdir.

9. Muroqaba (tafakkurga g'arq bo'lish) — erishilgan darajada mushohada yuritish, qalbni arzimas his-tuyg'ulardan xoli qilib, tozalash va xotirjamlikka erishish. Kurash, riyozat chekish yo'li bilan hosil qilingan yo'l haqqoniy tuhfa etilgan tabiiy amal bo'lib, yaratilish haqiqatining g'alabasi sifatida paydo bo'ladi va shuning uchun ham rivojlanib boradi.

10. Rizo — shaxsning nafs erkinligidan chiqib, Xudo xushnudligiga kirishi va azaldan nimaga ishongan bo'lsa, o'shani o'z bo'yniga olishidir. O'z irodasini toabad qoladigan narsaga voqelik sifatida qaytarib, o'limga o'xshash o'tkinchi narsaga e'tiroz bildirishi-dir.

O'n usuldan chiqariladigan natija shundaki, o'lmaydigan shaxsning yodi uning nafsini mag'lubiyatga uchratgan sifatlarida yashaydi.

Najmiddin Kubro shahid bo'lgandan so'ng, uning ta'limotini shogirdlari davom ettirib, Markaziy Osiyo Kubraviya maktabini vujudga keltirdilar. Bu birodarlik firqasi a'zolarini birlashtirgan narsa rasmiy tashkilot emas, balki ta'limotning ruhi va maqsadi edi.

Tashkiliy jihatdan Kubraviya xonaqohlarida o'z-o'zini boshqara-digan ozod anjuman bo'lib, uning boshida xalifa turar edi. 1221 yilda vafot etgan Najmiddin Kubroning shogirdi Sayfiddin Bahorziy tomonidan Buxoro yaqinidagi Sektariy qishlog'ida tashkil etilgan ana

shunday xonaqoh Najmiddin Kubro nomi bilan atalar edi. Bu yerdagi Kubraviya jamiyati XVIII asrning oxirlarigacha faol ish ko'rib, uning a'zolari Kubro g'oyalarini Xitoyning g'arbiy chegaralarigacha yoydilar. Kubroning boshqa bir shogirdi, 1252 yilda vafot etgan Sa'diddin Hamaviy Xurosonning Bahrabod deb atalgan maskanida xonaqoh barpo qilib, uning atrofida to'garak tashkil etdi.

Kubraviya maktabi bir qator mustaqil shahobchalar vujudga kelishiga sabab bo'ldiki, ular musulmon dunyosi SHarqida keng tarmoq otdi. Bu tarmoq kelib chiqish manbaini Kubroning boshqa bir shogirdi bo'lgan Majiddin Bag'dodiy (Bag'dodak Xorazmdagi qishloq bo'lib, undan chiqqan Majiddin 1209 yoki 1219 yilda qatl etilgan) asos solgan tariqatdan, deb hisoblar edilar. Bular quyidagilar:

Firdavsiya — Sayfiddin Bahorziy shogirdining xalifasi bo'lgan, 1300 yillarda vafot etgan Najibiddin Muhammad tomonidan tashkil etilgan va Hindistonda (Dehli, Bihar) tarqalgan;

Nuriya — 1317 yilda vafot etgan Abdurahmon al-Isfaroiniy tomonidan asos solingan bo'lib, Kubraviyaning Bag'dod shahobchasi hisoblanadi;

Rukniya — o'z kelib chiqishini 1261—1336 yillarda yashagan Rukniddin Alo'addavla as-Simnoniydan olgan birodarlik tariqati;

Hamadoniya oliya — Kashmirda islomni yoyishda faol ish ko'rsatgan Sayyid Ali binni SHahobiddin Hamadoni (1314—1385) asos solgan, rukniyadan ajrab chiqqan birodarlik tariqati bo'lib, Kubraviya tariqati silsilasining boshqa shahobchalarigacha qaraganda eng mashhuridir;

Ig'tishoshiya — hamadoniya oliyaning Xuroson shahobchasi bo'lib, Ishoq al-Xuttaloni (1423 yil o'ldirilgan) tomonidan asos solingan. Uning ikki shogirdi esa, ikki mustaqil shia tariqatiga asos solishgan;

Zahabiya — asoschisi XV asr o'rtalarida vafot etgan Abdulloh Barzishobodi Mashhadiy;

Nurbaxshiya — asoschisi Nurbaxsh (1392—1464) laqabli Sayyid Muhammad binni Muhammad.

Yuqorida aytilganlar shundan guvohlik beradiki, Najmiddin Kubro ta'limoti butun musulmon SHarqi mamlakatlarida keng tarqagan bo'lib, hozirda ham uning ko'rinishlarini uchratish mumkin.

SHunday qilib, Najmiddin Kubro tasavvuf ta'limotining rivoji va butun musulmon SHarqida keng tarqalishida katta rol o'ynadi. Uning nomi islom olamida mashhur bo'ldi.

XULOSA.

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir. Abul-Jannob va Tomatul Kubro laqablariga sazovor bo'lgan tasavvufning Kubraviya silsilasining asoschisi Najmiddin Kubroning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiydir. Hijriy oltinchi va yettinchi asrlarda yashagan Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va Bahouddin Valad kabi siymolar u kishining murid va shogirdlari bo'lgan.

Axmad ibn Umar Abul-Jannob Najmiddin Kubro 540 hijriy yilda Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga keladi.

Abdurahmon Jomiy o'zining «Nafahot-ul-uns» asarida yozishi-cha, Najmiddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo'ladi. Misrda Ruzbehon Vazzon al-Misriy (vafoti 584/1188) degan olim dargohida ta'lim oladi. Al-Misriy

esa, o'z navbatida, mash-hur mutasavvuf donishmand Abu Najib as-Suxravardiydan ta'lim olgan edi. Ruzbehon uni o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan tarbiya qiladi, hatto qizini nikohlab berib, o'ziga kuyov qilib oladi.

Ammo ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur IIqafda degan donishmanddan islomiy ilmlarni o'rganadi va Tabrizda shayx Bobo faraj, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvuf donishmandlardan tasavvufga oid ko'pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham egallaydi. U kishi shayx Ismoil Kasriy qo'lida tasavvufiy xirqapush darajasiga yetib, ul hazratning oq fotihasini oladi. So'ngra Misrdagi ustozi va qaynatasi Ruzbehon maslahati bilan o'z vatani — Xorazmga qaytib kelib xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi, «Kubraviya» yoki «Zahobiya» tariqatiga asos soladi. Bu tariqat ta'limoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib, o'z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliklari orasida zikrni ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro qilish usuli joriy bo'lgan.

«Rashahot ayn-ul-hayot» asarining muallifi Faxruddin as-Safiy o'z asarida hazrati Abdurahmon Jomiy fikrlariga tayangan holda Najmiddin Kubroning zikri xufiya talqini to'g'risida so'z yuritadi va shayx Kubro fikricha, zikr jarayoni insonlarning nafas olish (tanaffus) jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqida shunday ma'lumot beradi: «Hazrat Mahdumi Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy aytishlaricha, shayx Abul-Jannob Najm al-Kubro qudsi Allohi ruhi o'zining «Favotix al-jamol» risolasida yozganlaridek, hayvonlarning nafas olishi bir tabiiy zaruriyat tufayli yuz beradi.

Kubraviya maktabi bir qator mustaqil shahobchalar vujudga kelishiga sabab bo'ldiki, ular musulmon dunyosi SHarqida keng tarmoq otdi. Bu tarmoq kelib chiqish manbaini Kubroning boshqa bir shogirdi bo'lgan Majiddin Bag'dodiy (Bag'dodak Xorazmdagi qishloq bo'lib, undan chiqqan Majiddin 1209 yoki 1219 yilda qatl etilgan) asos solgan tariqatdan, deb hisoblar edilar. Bular quyidagilar: Firdavsiya — Sayfiddin Bahorziy shogirdining xalifasi bo'lgan, 1300 yillarda vafot etgan Najibiddin Muhammad tomonidan tashkil etilgan va Hindistonda (Dehli, Bihar) tarqalgan; Nuriya — 1317 yilda vafot etgan Abdurahmon al-Isfaroiniy tomonidan asos solingan bo'lib, Kubraviyaning Bag'dod shahobchasi hisoblanadi; Rukniya — o'z kelib chiqishini 1261—1336 yillarda yashagan Rukniddin Alo'addavla as-Simnoniydan olgan birodarlik tariqati; Hamadoniya oliya — Kashmirda islomni yoyishda faol ish ko'rsatgan Sayyid Ali binni SHahobiddin Hamadoni (1314—1385) asos solgan, rukniyadan ajrab chiqqan birodarlik tariqati bo'lib, Kubraviya tariqati silsilasining boshqa shahobchalarigya qaraganda eng mashhuridir;

Ig'tishoshiya — hamadoniya oliyaning Xuroson shahobchasi bo'lib, Ishoq al-Xuttaloni (1423 yil o'ldirilgan) tomonidan asos solingan. Uning ikki shogirdi esa, ikki mustaqil shia tariqatiga asos solishgan; Zahabiya — asoschisi XV asr o'rtalarida vafot etgan Abdulloh Barzishobodi Mashhadiy;

Nurbaxshiya — asoschisi Nurbaxsh (1392—1464) laqabli Sayyid Muhammad binni Muhammad.

Yuqorida aytilganlar shundan guvohlik beradiki, Najmiddin Kubro ta'limoti butun musulmon SHarqi mamlakatlarida keng tar-qagan bo'lib, hozirda ham uning ko'rinishlarini uchratish mumkin.

SHunday qilib, Najmiddin Kubro tasavvuf ta'limotining rivoji va butun musulmon SHarqida keng tarqalishida katta rol o'yna-di. Uning nomi islom olamida mashhur bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010. - 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni// Xalq so'zi, 2010 yil 29 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 6 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori//Xalq so'zi, 2011 yil 7 aprel, № 68 (5235).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori//Xalq so'zi, 2011 yil 20 may, № 100 (5267).
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan Oliy darajadagi yalpi majlisidagi nutqi. Xorijiy ijtimoiy-siyosiy doiralar vakillarining munosabatlari va sharhlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 184.
6. Prezident Islom Karimovning 2011 yil 7 fevraldagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori//Xalq so'zi, 2011 yil 10 fevral, " 29 (5196).
7. O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 18 apreldagi № O'RQ-284-sonli "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kirish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)"gi Qonuni//Xalq so'zi, 2011 yil 19 aprel, № 76 (5243).
8. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1994. – B. 160.
9. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 364.

10. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. – B. 366.
11. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. – 4-jild. - T.: O'zbekiston, 1996. – B. 349.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. – B. 326.
13. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – 6-jild. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 429.
14. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: SHarq, 1998. – B. 32.
15. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999. – B. 410.
16. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000. – B. 528.